IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI
NAMANGAN DAVLAT CHET
TILLARI INSTITUTI

"TIL VA ADABIYOT, CHET TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI" MAVZUSIDAGI V XALQARO TALABALAR ILMIY ANJUMAN MATERIALLARI



www.namsifl.uz

Ushbu to‘plam Namangan davlat chet tillari instituti rektorining 2025-yil 21-yanvardagi 10-F/B-son buyrug‘iga asosan Namangan davlat chet tillari institutida 2025-yil 10-mart kuni o‘tkazilgan “Til va adabiyot, chet tillarni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi V xalqaro talabalar ilmiy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

Mas’ul muharrir: p.f.d., dotsent M.Yakubbayev
Mas’ul muharrir o‘rinbosari: katta o‘qituvchi M.Sharofiddinov
Tahrir hay’ati: f.f.d., professor N.Dosbayeva
p.f.d., dotsent S.Misirov
f.f.f.d., professor A.Tursunov
p.f.f.d., dotsent A.Ermirzayev
f.f.f.d., dotsent O.Dadaboyev
p.f.f.d., dotsent F.Erkulova
p.f.f.d., dotsent X.Tursunov
p.f.f.d., dotsent U.Abdurasulova
f.f.f.d. I.Umrzaqov
f.f.f.d. R.Kazakova
dotsent L.Kozlova
Texnik muharrir: B.Xoldorov

Xalqaro talabalar anjuman materiallariga oid mazkur to‘plam, chet tillarini o‘qitishning eng zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga tadbiq etilishiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Maqolalarda keltirilgan statistik ma’lumotlar, ilmiy-nazariy faktlarning ishonchliligi, imloviy va stilistik xatoliklar uchun muallif o‘zi javobgar.

© NSIFL, Namangan davlat chet tillari instituti

MUNDARIJA

10.00.00 FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

1	**Kirish so‘zi** *Karimov Rivojiddin*	7
2	**“Devonu lug‘otit-turk”da qo‘llanilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning statistik tadqiqi** Ahmadjonova Maftuna	9
3	**O‘zbek va ingliz badiiy matnlarida o‘xshatishning qo‘llanishi: lingvistik va madaniy qiyosiy tahlil** Mamarasulov Ahmadjon, Anvarova Farangis	17
4	**Language and literature, modern approaches of teaching foreign languages** Egamberdiyeva Dilnoza	23
5	**Ingliz va o‘zbek xalq maqollarida do‘stlik/dushmanlik konseptlaring sinonimik va antonimik munosabatlari** Ergasheva Gulzoda	31
6	**Investigating the plot structures and fundamental concepts of chivalric romance** Nabiyeva Zulaykho	37
7	**Zullisonayn adiblar va ularning tarjimashunoslikka qo‘shgan hissalari** Po‘latova Go‘zaloy, Tulanboyeva Dildoraxon	43
8	**Islomiy diskurs va’zlarining asosiy lingvistik jihatlari** Rashidova Dilnoza	46
9	**The difference between consecutive and simultaneous translation** Raxmonaliyeva Rayxona	51
10	**Sharq va g‘arb adabiyotida vaqt metaforasining stilistik farqlari** Yunusova Halima	57

11	**Nemis tarjimoni Ingeborg Baldaufning Shukrullo Yusupov “Kafansiz ko‘milganlar” (die ohne Leichentuch Begrabenen) asari haqida fikrlari** Yusupova Umida, Biloldinova Saida	**62**
12	**Культурно-языковое расслоение русского дворянства во второй половине xviii века. отражение этого процесса в творчестве Д. И. Фонвизина.** Казакова Раъно, Умурзакова Дарья	**68**
13	**Развитие медицины в средней Азии в средние века: вклад ученых Узбекистана** Юсупов Диёрбек, Юсупова Татьяна	**76**
14	**Sharq va g‘arb adabiyotida muhabbat va xiyonat motivlari** Yoqubboyeva Dilnoza	**84**
15	**Rang ramzlarining mazmun mohiyati** Xabibullayeva Mahliyo	**90**
16	**Theoretical issues in linguistics: a pragmatic perspective** Tirkasheva Mohichehra, Nargiza Dosbayeva	**95**
17	**Tarjimada leksik va grammatik transformatsiyalarning lingvistik xususiyatlari** Muhammadaliyeva Sitora	**99**
18	**Challenges in translation** Isroiljonova Anora	**106**
19	**Tarjimada stilistik masalalar** Abdulxakima Gulchiroy	**112**
20	**Muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilish usullari** Olimjonova Maftunaxon	**118**
21	**O‘zbekcha idiomalar va ularning ingliz tiliga tarjimasi** Jaloliddinova Nigora	**122**

13.00.00 PEDAGOGIKA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

22	**Tilni xorijiy til sifatida o‘qitishda lug‘at boyligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida** Axmadjanova Malika	125
23	**Цифровые технологии и новые стратегии в обучении языкам** Холмуродова Дилдора, Апсаттарова Ихлимой, Тургунпулатова Гузалой	133
24	**Foreign language education in Uzbekistan: challenges and international best practices** Yuldasheva Nihola	137
25	**The role of creative methods in teaching foreign languages to children** Mathieu Bernard	145
26	**Tibbiyot talabalarining nemis tilini ikkinchi xorijiy tili sifatida o‘rganish strategiyalari** Zaripova Rokiya, Xodjayeva Nilufar	149
27	**Chet tillarini o‘qitishda interfaol metodlar: kommunikativ yondashuv va uning samaradorligi** Toshtemirova Shohsanam	157
28	**Nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishda ta’lim mazmuni tushunchasining metodik tahlili** Tojimatova Madinabonu	164
29	**Sun’Iy intelekt yordamida individual til o‘rganish dasturlarining samaradorligi** Sattorova Mohinur	171
30	**Innovative methods of teaching a foreign language for seniors** Mirzarayimova Hadicha	177
31	**The role of teaching foreign languages in steam education** G‘aybullayeva Gullola	181

32	**The role of emotional intelligence in language learning** Ashurova Diloro, Raxmanova Mubinaxon	**186**
33	**English language teachers' continuous professional development in the age of artificial intelligence** Darya Smirnova	**191**
34	**Benefits of project-based learning in language acquisition** Anvarjonova Iqbolkhon	**195**
35	**Content-based instruction: learning language through subject knowledge** Abdumalikova Saidabonu	**204**
36	**Task-based learning: teaching foreign languages based on practical assignments** Erzhan Mukhanov	**209**
37	**Strategies for improving english communication and build speaking confidence among EFL learners** Turg'inova Mohinur	**213**
38	**Zamonaviy texnologiyalarni bolalarga ingliz tilini o'qitishda qanday qo'llash mumkin?** Tojiboyeva Sevinch, Islomova Shahrizoda	**217**
39	**Development of speaking skills of secondary school english language learners through the shadowing technique** Sevinch Mirabdullaeva	**223**
40	**Ingliz tili darslarida o'yin texnologiyasidan foydalanishning samarali usullari** Marufjanova Dilafruz	**230**
41	**Ta'lim tizimida loyihalashtirishning o'rni va imkoniyatlari** **G'anijonov Shohjahon**	**237**

KIRISH SO‘ZI

Bugun O‘zbekistonda ta’lim tizimini barcha bo‘g‘inlarida jadal islohatlar olib borilmoqda. So‘nggi yillar davomida Yangi O‘zbekistonni shakllantirishning fundamental poydevori yaratildi, deyishga asoslarimiz bor. Ayniqsa, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xususan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda asrlarga arzigulik mazmun va samara kasb etadigan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovasion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga kata e’tibor berildi. Mazkur islohotlarning zamirida yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish, bugungi global dunyoning faol ishtirokchisiga aylantirish maqsadlari yotadi.

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ilmli va ma’rifatli yoshlarni kamol toptirish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, xorijiy tillarga o‘qitishni yanada ommalashtirish, shuningdek, bunday faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subektlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish maqsadida chet tillarini o‘qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev chet tillarini o‘qitish to‘g‘risida to‘xtalib **“Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, lisey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”** deya qayd etgandi.

Til kishilik jamiyatini barpo etgan, uning taraqqiyotiga sabab bo‘lgan va turli mamlakatlarni bir-biriga bog‘lab turgan buyuk ne’mat, qudratli kuchdir. Shuning uchun tillarni o‘rganishga hamisha katta e’tibor qaratib kelingan, til o‘qitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan. Xususan, mamlakatimizda ta’lim sohasida o‘tkazilgan islohotlar chet tillarni o‘qitishda ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Xorijiy tillarni boshlang‘ich sinflardan boshlab uzluksiz o‘qitilishining yo‘lga qo‘yilishi, davlat ta’lim standartlarini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun o‘quv dasturlari mazmunini yangilash, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 9-iyundagi PQ-275-sonli qarori** bilan ma’rifatparvar olim, sharq va g‘arb tillarining bilimdoni Is’hoqxon Ibratning yorqin xotirasi hamda nomini abadiylashtirish,

Namangan viloyatida xorijiy tillarni mukammal egallagan, chuqur bilimga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida **Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti** tashkil etildi.

Hozirgi vaqtda Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida **9 ta xorijiy tillarda** talaba-yoshlar ta’lim berilmoqda.

Talabalarga xalqaro andozalar asosida sifatli ta’lim berish maqsadida joriy yilning o‘zida **52 nafar professor-o‘qituvchilar va 10 dan ortiq talabalar** nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot muassasalarida malaka va tajriba oshirib qaytdilar. Egallangan tajriba va malakalarni ular o‘zlarining o‘quv-metodik, o‘quv-pedagogik faoliyatlarida qo‘llab kelishmoqda.

2024-yil davomida institut o‘quv jarayonlariga **15 nafar** xorijlik mutaxassislar jalb etildi, xozirda institutda **2 nafar** AQSHlik mutaxassis uzoq muddatli pedagogik faoliyatini olib bormoqda.

Institutimizda har yili talabalarning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadi **“Til va adabiyot, chet tillarni o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi xalqaro talabalar ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish an’anaga aylangan. Mazkur anjuman izlanuvchilarga yangi tadqiqotlarni sarhisob qilish imkoni bersa, talaba-yoshlar hamda yosh tadqiqotchilar uchun har bir ma’ruza, yangi yondashuv tajriba maktabi vazifasini o‘taydi.**

Mazkur **Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman** chet tillari oldida turgan dolzarb masalalarning ijobiy yechimini topishga yordam berib, sohaning yanada rivoj topishiga o‘z hissasini qo‘shadi, degan umiddaman. Anjuman ishtirokchilari va ular orqali barcha tadqiqotchi-yoshlarga salomatlik va boshlanayotgan ilmiy faoliyatlarida muvafaqqiyatlar tilayman.

R.G.Karimov
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti rektori,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

10.00.00 FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK”DA QO‘LLANILGAN KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING STATISTIK TADQIQI

Ahmadjonova Maftuna Alijon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktaranti
maftuna.ahmadjonova96@gmail.com
+998916424488

Annotatsiya: XI asrda yaratilgan qator asarlar, xususan, “Devonu lug‘otit turk” tilimiz tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi muhim manbadir. Asarda qo‘llangan polisemantik so‘zlarning tahlili bu hodisaning tarixiy taraqqiyotini belgilashda muhim asosdir.

XI asrda ham bu hodisa tilda faol qo‘llanilib, turkiy tilning kengligi va so‘zlar ma’noga boy bo‘lganligining isbotidir. Ayniqsa, turkiy polisemantik so‘zlar boshqa turkumlarga qaraganda ot va fe’l so‘z turkumi doirasida salmoqli bo‘lgan. Ko‘p ma’noli so‘zlar ikkitadan oltitagacha ma’no anglatib kelgan. Polisemantik so‘zlar tahlili XI asrdagi so‘zlarning ma’no qirralari haqida ma’lumot berishi bilan birga, XI asrda yashagan ajdodlarimizning obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, belgi, harakat va holatlarni bir-biri bilan aloqador holda qanday qiyoslab idrok qilganligi, ularni tilda qay darajada aks ettira olganliklarini ham ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Polisemiya, devon, ko‘p ma’noli so‘zlar, bir ma’noli so‘zlar, tilshunoslik.

Annotation. A series of works created in the 11th century, in particular, "Devonu lugotit Turk" is an important source that shows the historical development

of our language. The analysis of polysemantic words used in the work is an important basis for determining the historical development of this phenomenon.

Even in the 11th century, this phenomenon was actively used in the language, proving the breadth of the Turkish language and the richness of the words. In particular, Turkish polysemantic words were more important within the noun and verb word group than in other groups. Polysyllabic words have two to six meanings. The analysis of polysemantic words provides information about the meaning aspects of words in the 11th century, and also shows how our ancestors who lived in the 11th century compared and perceived objects, reality, symbols, actions and situations in the objective existence in relation to each other, and to what extent they were able to reflect them in the language.

Key words: polysemy, devon, polysemous words, monosyllabic words, linguistics.

Аннотация. Серия произведений, созданных в XI веке, в частности «Девону луготит тюрк», является важным источником, показывающим историческое развитие нашего языка. Анализ многозначных слов, использованных в работе, является важной основой для определения исторического развития этого явления.

Еще в XI веке это явление активно использовалось в языке, доказывая широту турецкого языка и богатство слов. В частности, турецкие многозначные слова были более важны в группе существительных и глагольных слов, чем в других группах. Многосложные слова имеют от двух до шести значений. Анализ многозначных слов дает информацию о смысловых сторонах слов в XI веке, а также показывает, как наши предки, жившие в XI веке, сравнивали и воспринимали предметы, реальность, символы, действия и ситуации предметного существования по отношению друг к другу и в какой степени они умели отразить их в языке.

Ключевые слова: многозначность, девон, многозначные слова, односложные слова, лингвистика.

“Devonu lug‘otit-turk” turkiy so‘zlarning arabcha izohli lug‘ati bo‘lgani uchun ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga molikdir. Uni har tomonlama tadqiq qilish turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqining tarixini, urf-odatlarini, so‘z boyligini, adabiy merosini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Polisemiya-ko‘p ma’nolilik, so‘zlarning birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishidir. Polisemiya grekcha poli “ko’p”, semio “ma’no” so‘zidan olingan bo‘lib, ko‘p ma’noli deganidir.

Bittadan ortiq ma’no anglatadigan leksema esa ko‘p ma’noli, polisemem, polisemantik leksema sanaladi. Polisemiya universal asosiy semantik hodisalardan biridir. Tildagi tejamkorlik qonuni va umumiylik prinsipi polisemiyani vujudga keltiruvchi asosiy sabablardan deb ko‘rsatiladi [1. Ҳакимова М Б. 50]. Ko‘p ma’nolilik-ko‘p qirrali va murakkab hodisa. Turkiy tillar, xususan o‘zbek tili boy til. Tildagi so‘zlarning salmoqli qismini ko‘p ma’noli so‘zlar tashkil etadi. Qadimdan boshlab turkiy xalqlar yangi paydo bo‘lgan tushunchalarni alohida yangi so‘zlar bilan nomlamasdan, tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida leksikonda mavjud so‘zlardan foydalanib nomlashga harakat qilishgan. Agar yangi paydo bo‘lgan tushunchalar uchun alohida so‘zlardan foydalanilsa, tildagi so‘zlar miqdori haddan ortiq ko‘payib ketadi, so‘zlarni xotirada saqlab qolish ham qiyinlashadi. Natijada bu tildan foydalanish murakkablashib, hatto til yaroqsiz holga kelib qolishi ham mumkin.

Bir ma’nolilik so‘z hayotining dastlabki davrlariga, ko‘p ma’nolilik esa keyingi davrlariga xos bo‘ladi [2. Ш.Абдураҳмонов Ш, Б.108.]. Keyinchalik vaqt o‘tishi bilan uning mazmunida turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma’no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora barqarorlashib boradi va hosila nutqiy ma’no lisoniylashadi. Natijada bir sememali leksema birdan ortiq sememali leksemalarga aylanib boradi [3. Sayfullayeva R, B. 84.].

Mahmud Qoshg‘ariy uzoq yillar davomida “Devon” ustida tinmay mehnat qildi, ko‘p yillar yurtma-yurt kezdi. Yuqori Chindan boshlab, butun Movaraunnahr,

Xorazm, Kavkazorti, Kichik Osiyo(Anado‘lu) gacha yastangan keng va mahobatli hudud-u mintaqalarni birin-ketin aylanib chiqdi. Shu hudud-u mintaqalarda yashayotgan urug‘lar, qabilalar, qavmlar, aymoqlar, elatlar, xalqlarning kasb-kori, hayot sharoitlari, yashash tarzi-yu usuli, nufuzi (soni), urf-odatlari, rusumlarini aniqladi, ayniqsa, ularning tillarini sinchkovlik bilan o‘rgandi. Oxir-oqibat bu ulug‘ inson juda katta hududda yashagan turkiylarning tillariga tegishli to‘plagan aniq, haqqoniy, obyektiv, va ishonarli materiallarni jamlab, ajoyib bir lug‘at yaratishga muvaffaq bo‘ldi [4. Дадабоев Ҳ. Б. 19.].

“Devon” bo‘yicha kuzatishlarimiz natijasida XI asrda qo‘llangan 214 ga yaqin polisemantik so‘zlar aniqlandi. Bu polisemantik so‘zlar ot, sifat, ravish va fe’l so‘z turkumlari doirasida.

“Devon”dan aniqlangan ko‘p ma’noli so‘zlarning 77 tasi ot so‘z turkumiga, 102 tasi fe’l so‘z turkumiga, 32 tasi sifat so‘z turkumiga va 3 tasi ravish so‘z turkumiga oid.

Ot turkumi doirasida ko‘p ma’nolilikning hosil bo‘lishi boshqa turkumlarga qaraganda ancha salmoqli. Devondagi polisemantik so‘zlar otning narsa-predmet (57 ta), shaxs (5ta), o‘rin-joy (13 ta), faoliyat-jarayon (2ta) otlari kabi ma’no turlariga tegishli.

“Devon”da keltirilgan polisemantik so‘zlarning ba’zilari belgi nomining narsa-predmetga ko‘chirilishi natijasida hosil bo‘lgan. Masalan: *al* 1. To‘q sariq rangdagi ipak kiyimlik; undan xon bayroqlari va amaldorlarining otlariga yopiladigan yopiq qilinadi; 2. To‘q sariq rangga ham *al* deydilar (5. Sodiqov Q. DLT, 46).

“Devon”da shaxs-narsa predmetning xususiyati (22 ta), rang-tusi (5ta) va hajm-o‘lchovini (5 ta) bildiruvchi sifatlar doirasida ko‘p ma’nolilik kuzatiladi.

“Devon”da ravish turkumiga oid daraja-miqdor bildiruvchi *uzaq, tuman, oğur* so‘zlari polisemantik leksema sifatida beriladi U ikki ma’noga ega.

Uzaq 1. Uzoq; 2. *Uzaq iš*-cho‘zilgan ish; bir yerga yuborilgan odamning kechikishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. *Yalavač uzaq bardï.* (yuborilgan kishi kechikdi) (5. Sodiqov Q. DLT, 40).

Tümän 1. Har narsaning ko‘pi. *Tümän türlüg sözlädi*-har xil so‘zlar so‘zladi, turli-tuman so‘zladi; 2. Ming-ming, ming tuman (5. Sodiqov Q. DLT, 161).

Oğur 1. Vaqt. *Ne oğurda kelding- qay vaqt kelding? 2*. Ishning o‘rnida bo‘lishi, joyida vaqtida bo‘lishi. *Bu iš oğluğ boldï*- bu ish vaqtida bo‘ldi (5. Sodiqov Q. DLT, 35).

“Devon”da keltirilgan ko‘p ma’noli so‘zlar orasida fe’l turkumi ham anchagina. Ular harakat (80 ta) va holat fe’llari (22 ta) hisoblanadi. Ular orasidagi ma’no munosabatlari tipik, qaytariluvchi va bir-biriga o‘xshash.

“Devon” da keltirilgan so‘zlarning ko‘p qismini bir ma’noli so‘zlar tashkil etadi. Ushbu monosemantik so‘zlar qatoriga *awurta* “doya”, *alïmchi* “qarz beruvchi”, elpi “uloq”, *etuk* “etik”, *butïq* “butoq”, *izi* “kelgusi yildan keyingi yil”, *ya* “yoy, kamon”, qïlič “qilich” singari ko‘plab monosemantik so‘zlarni misol qilish mumkin [4. Дадабоев Ҳ. Б. 115].

Shuningdek, “Devon’’da qoraxoniylar davrida turkiy tilda qo‘llangan bir qancha ko‘p ma’noli so‘zlar ham izohlangan. Keltirilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning semik tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular ikkitadan oltitagacha ma’no izohlab kelgan. Ular orasida ikki ma’no anglatuvchi so‘zlar talaygina.

Masalan, *Alïn* 1. Peshona, manglay; 2. Tog‘ning yumaloq va baland tomoni (5. Sodiqov Q. DLT, 44).

Ağru 1. Narsa og‘ir bo‘ldi. 2. Kasal og‘irlashdi (6. DLT 1-jild, 192).

Sïg‘dï 1. Bu so‘z ko‘ngilga sig‘di, ta’sir qildi. 2. U qopga sig‘di (7. DLT 2-jild, 16).

Uch ma’noni ifodalagan ko‘p ma’noli so‘zlarga misol qilib *uč* so‘zini keltirish mumkin.

Uč 1. Narsaning uchi. Butaq uči- butoqning uchi, shoxning uchi. 2. *Uč el*- chegara, el, mamlakat chegarasidagi viloyat. 3. Biror narsaning tugallanishi, bitishi. *Bayda nä uč bar*, deydilar. Ma’nosi: “Xalq (qavmda) shu qadar ko‘pki, unda tugash yo‘q” demakdir (5. Sodiqov Q. DLT, 32).

Tutundï 1. Kun tutildi. 2. Oy tutildi, bek meni o‘g‘il qildi tutundi. 3. Kishi kiyik tuttdi (7. DLT 2-jild, 99).

Beläldï 1. Odam terga belandi. 2. Bola beshikka belandi. 3. U qinga belandi (8. DLT 3-jild, 136).

To‘rt ma’noli so‘zlarga *ağïz* so‘zi kiradi.

Ağïz 1. Odam og‘zi; 2. Hayvonlar og‘zi; 3. Charm idish, qovg‘aning og‘zi; 4. Ariq, quduq og‘zi (5. Sodiqov Q. DLT, 36).

Boshudï 1. Uning ichi bo‘shaldi. 2. Tugun bo‘shabroq qoldi. 3. U bog‘lovidan yechildi, bo‘shaldi. 4. Er xotinni taloq qildi, bo‘shatdi. (8. DLT 3-jild, 183).

Besh ma’noni anglatgan polisemantik so‘zlarga bosh so‘zi misol.

Baš- 1. Bosh, kalla; 2. Jo‘mrak; 3. Boshoq; 4. Cho‘qqi; 5. Daryoning yuqorisi.

Olti ma’noli so‘zlar ham lug‘atda o‘rni bilan qayd etilgan. Masalan: *keč* 1. O‘tmoq, kechmoq; 2. O‘tmoq (yosh); 3. O‘tmoq, kechmoq (vaqt); 4. O‘tmoq, sodir bo‘lmoq; 5. O‘tmoq (qayergadir); 6. O‘lmoq, vafot etmoq (5. Sodiqov Q. DLT. 209).

Boš- bo‘sh 1. Ozod, erkin odam. 2. Ajralgan ayol. 3. Bosh elik, ishdan bo‘shagan qo‘l. 4. Bosh et, yumshoq go‘sht. 5. Bo‘shatilgan ot. 6. Bo‘sh uy (8. DLT 3-jild, 83).

“Devon”da keltirilgan ayrim polisemantik so‘zlarning har bir ma’nosi alohida so‘z sifatida keltirilgan. M. Mirtojiyev ham bu haqida ta’kidlab o‘tgan: “Mahmud Qoshg‘ariy ham o‘zining “Devonu lug‘otit turk” kitobida turkiy polisemantik so‘zlarni qayd etgan, biroq unda polisemantik so‘zning har bir ma’nosi alohida so‘z sifatida berilgan” [9. Миртожиев М.Б. 3]. Aksariyat o‘rinlarda Qoshg‘ariy polisemantik so‘zlarning ma’no aloqadorliklarini tushuntirgan holda, so‘zning ikki yoki undan ortiq ma’nolarini sharhlab bergan.

Polisemiya deyarli barcha turkum so‘zlariga xos hodisadir. Masalan, “Devon”dagi *ağïr, ağïz, učdï* so‘zlarning quyidagi misollardagi ma’nolariga e’tibor qaratamiz:

Ağïr 1. Og‘ir, har narsaning og‘iri. Xalq yoki bek tomonidan hurmat qilinadigan kishiga *ağïrlïq kiši* deb aytiladi. *Täŋri meni ağïrladï*-Xudo meni siyladi, qadrladi; 2. *Ağïr adaq amruldï*- og‘ir oyoq kechadan bir muncha muddat o‘tgandan keyin to‘xtadi deyilmoqda, ya’ni og‘ir oyoqli kishi sekin va sust yursa ham manzilga yetadi degan ma’noda; 3. *Ağïr näŋ*-narxi baland narsa, qimmatbaho narsa (5. Sodiqov Q. DLT, 35).

Ağïz 1. Ariq og‘zi; charm idish yoki qovg‘aning og‘zi; xum og‘zi, quduq og‘zi; 2. *Ağïz* - odam va hayvonlar og‘zi (5. Sodiqov Q. DLT, 36).

Učdï- 1. *Quš učdï*- qush uchdi; 2. *Anïŋ qutï učdï*- uning quti, baxti, davlati uchdi; 3. *Er atdan qúźï učdï*- kishi otdan yiqilib tushdi (5. Sodiqov Q. DLT,80).

Bu o‘rinlarda *ağïr, ağïz, , učdï* so‘zlari birdan ortiq ma’noni bildirib kelgan ko‘p ma’noli so‘zlardir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, bir shaklga birdan ortiq ma’noning tog‘ri kelishi natijasida polisemiya hosil bo‘ladi. Polisemiyada bitta shakl (nomema) bilan birdan ortiq ma’no (semema) ifodalanadi [1. Ҳакимова М. Б 53]. Polisemantik so‘z qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bu ma’nolar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi [2. Шоабдураҳмонов Ш, Б 106.]. Yuqoridagi polisemantik so‘zlar ma’nosida ham umumiylik bor. *Ağïr* so‘zida meyoridan ortiqlik, *ağïz* so‘zida shakliy jihatdan o‘xshashlik, *učdï* so‘zida esa harakatning tez va oson bajarilishi umumiydir

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ҳакимова М. Семасиология. –Т.: Тошкент давлат педагогика унвериситети, 2007.
2. Шоабдураҳмонов Ш, Асқарова М, Ҳожиев А, Расулов И, Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1980.
3. Sayfullayeva R, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2010.
4. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. –Т.: ТошДШУ,

2017.

5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2017.
6. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони. Нашрга тайёрловчи Х. Болтабоев. 1-нашр Т.: Мўмтоз сўз, 2016.
7. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони. Нашрга тайёрловчи Х. Болтабоев. 2-нашр Т.: Мўмтоз сўз, 2016.
8. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони. Нашрга тайёрловчи Х. Болтабоев. 3-нашр Т.: Мўмтоз сўз, 2016.
9. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1984.
10. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Mumtoz so‘z, 2010.

O‘ZBEK VA INGLIZ BADIIY MATNLARIDA O‘XSHATISHNING QO‘LLANISHI: LINGVISTIK VA MADANIY QIYOSIY TAHLIL

Mamarasulov Ahmadjon Anvarjon o‘g‘li
University of Business and Science, ingliz tili o‘qituvchisi
mamarasulov1771@gmail.com
Anvarova Farangis Akmaljon qizi
University of Business and Science, talaba
Mdseruf18@gmail.com

Annotatsiya: maqola o‘zbek va ingliz badiiy matnlarida o‘xshatishlarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida tanlangan ma’lumo‘xshatish semantik, stilistik va madaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar o‘xshatishlarning ikki til madaniyatidagi umumiy va o‘ziga xos tomonlarini ochib berdi. Xususan, o‘zbek badiiy matnlarida mahalliy madaniyatga asoslangan o‘xshatishlar ustunlik qilgan bo‘lsa, ingliz tilida universallikka urg‘u beruvchi o‘xshatishlar keng qo‘llanilgan. Ushbu maqola lingvistika va tarjimashunoslik sohasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, badiiy matnlar, lingvistik tahlil, madaniy qiyoslash

Abstract: The article explores the linguistic and cultural features of similes in Uzbek and English literary texts. Similes were selected and analyzed semantically, stylistically, and culturally. The results reveal both universal and unique characteristics of similes in these two languages. Uzbek literary texts predominantly reflect culture-specific similes rooted in local traditions, while English texts often employ universal imagery. This study provides valuable insights into linguistics and translation studies, contributing to a deeper understanding of stylistic devices across languages.

Key words: similes, literary texts, linguistic analysis, cultural comparison.

Badiiy adabiyot tilining asosiy xususiyatlaridan biri – obrazlilik va ifoda vositalarining xilma-xilligi bo‘lib, bu usullar o‘quvchining tasavvurida jonli va emotsional obrazlarni shakllantiradi. Adabiy tilda qo‘llaniladigan badiiy vositalardan biri – o‘xshatish (simile) bo‘lib, u nafaqat matnni bezash, balki ma’no va hissiy ta’sirni kuchaytirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. O‘xshatish inson mantiqiy fikrlashini metaforik obrazlarga bog‘laydi va shunday yo‘l bilan adabiy matnning hissiy kuchini oshiradi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik badiiy tasviriy vositalarning shakllanishida ham namoyon bo‘ladi. Har bir tilda o‘xshatish vositalarining paydo bo‘lishi xalqning dunyoqarashi, madaniyati, an’analari, va hayot tarziga bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilida ko‘proq tabiat va mahalliy hayotiy tajriba bilan bog‘liq o‘xshatishlar uchrasa, ingliz tilida global, universal tasvirlarga asoslangan o‘xshatishlar ko‘p uchraydi. Shuningdek, badiiy matnda o‘xshatishlarning qo‘llanilishi yozuvchining uslubi va tasviriy mahoratini ham ochib beradi.

O‘xshatishlarning qo‘llanilishi faqat lingvistik xususiyatlar bilan chegaralanmay, balki ularning semantik va stilistik funksiyalari ham muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, o‘xshatish ba’zan irodiya yoki kinoya vositasida, ba’zan esa hissiyotlarni kuchaytirishda qo‘llaniladi. Ingliz adabiyotida "as bright as the sun" kabi o‘xshatish yorqinlik va umidni ifodalaydi, o‘zbek adabiyotida esa "qushdek yengil" iborasi erkinlik va zavqni ta’kidlaydi.

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida o‘xshatishlarning lingvistik, madaniy va stilistik xususiyatlari chuqur o‘rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi til va madaniyatni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish ehtiyojidan kelib chiqadi. Adabiyotshunoslik va tarjima sohasida bu masala muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o‘xshatishlarni turli tillar va madaniyatlarda to‘g‘ri tushunish hamda tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tadqiqot davomida O‘zbek va Ingliz badiiy matnlaridan tanlangan o‘xshatishlar semantik, lingvistik va stilistik jihatdan tahlil qilindi. Quyida asosiy natijalarni tasnif qilingan holda bayon etib boramiz.

O‘xshatishlar. O‘zbek va ingliz badiiy matnlarida o‘xshatishlar turli maqsadlarda qo‘llangan bo‘lsa-da, ularning asosiy vazifalari va semantik yo‘nalishlari o‘xshash bo‘lib chiqdi. Tabiatga oid o‘xshatishlar: Har ikki tilda tabiat obrazlari ko‘p uchraydi. Masalan: o‘zbek tilida: "yuragi muzday toshdek sovuq". Ingliz tilida: "cold as ice" (muzdek sovuq)". Hissiy holatlarni tasvirlash: o‘xshatishlar ko‘pincha inson his-tuyg‘ularini aniqroq va obrazliroq ifodalashda ishlatiladi: O‘zbek tilida: "g‘amga botgan ko‘zlari dengizdek chuqur edi". Ingliz tilida: "deep as the ocean" (okeandek chuqur). Universallik: Ba’zi o‘xshatishlar har ikki tilda deyarli bir xil ma’noda uchraydi. Masalan, *tezlik*ni ifodalashda: O‘zbek tilida: "shamolday tez". Ingliz tilida: "fast as the wind" (shamoldek tez).

Madaniy farqlar. O‘xshatishlarning mazmunida har bir til va madaniyatga xos o‘ziga xosliklar kuzatildi: o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar: Mahalliy madaniyat va hayot tarziga asoslangan obrazlar ustunlik qiladi. Masalan: "Arava kabi sekin" – bu o‘xshatishda mahalliy transport vositasi tasvirlangan. "Paxta dalasidagi guldek go‘zal" – qishloq xo‘jaligiga xos obraz ishlatilgan. Ingliz tilidagi o‘xshatishlar: Ko‘proq universal va xalqaro miqyosda tanilgan obrazlar ishlatiladi. Masalan: "Busy as a bee" (asalari kabi band) – bu o‘xshatishda asalari obrazidan foydalanilgan, bu esa ko‘plab madaniyatlarda umumiy tushuniladi. "Strong as a lion" (sher kabi kuchli) – universal kuch obrazini aks ettiradi.

Lingvistik xususiyatlar. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlar ko‘pincha murakkab gap shaklida ifodalanadi: "Yuragi tog‘lardan ham baland, osmondan ham ulug‘ edi". Ingliz tilida esa qisqalik va lakoniklik ustunlik qiladi: "Pure as snow" (qor kabi toza). Leksik birliklar: O‘zbek tilida poetik va obrazli leksik birliklar ko‘proq qo‘llanadi: "Ko‘ngli tog‘dek keng". Ingliz tilida esa aniq, sodda va tushunarli birliklar afzal ko‘riladi: "Wide as the sky" (osmondek keng).

Stilistik vazifalar. O‘xshatishlar badiiy matnning estetik qiymatini oshiradi va o‘quvchining tasavvurida jonli obrazlar yaratadi. Hissiyotlarni kuchaytirish: O‘xshatishlar orqali yozuvchi o‘quvchining hissiyotiga ta’sir qiladi. Masalan, O‘zbek tilida: "Tungi osmon yulduzlar bilan qoplangan baxmaldek edi". Ingliz tilida: "The

sky was like a velvet blanket studded with stars". Irodiya va kinoya: Ba'zi hollarda o'xshatish irodiya yoki kinoyaviy ma'no berishda ishlatiladi. Masalan: o'zbek tilida: "Gapining asosi yo'q, paxtadek yengil" (kinoya). Ingliz tilida: "Light as a feather" (yengil, ammo kam qiymatli).

Statistika natijalari. Tabiatga oid o'xshatishlar: o'zbek tilida 40%, ingliz tilida 35%. Hissiy holatni ifodalovchi o'xshatishlar: o'zbek tilida 30%, ingliz tilida 40%. Universal obrazlar: ingliz tilida 50%, o'zbek tilida 20%. Milliy madaniyatga xos obrazlar: o'zbek tilida 60%, ingliz tilida 25%. O'zbek va ingliz badiiy matnlarida o'xshatishlarning qo'llanilishi lingvistik, stilistik va madaniy xususiyatlarning o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi. Quyida ushbu tadqiqot natijalarini muhokama qilib, ularning ahamiyati va izohlanishi ko'rib chiqamiz:

Lingvistik xususiyatlarning tahlili. O'xshatishlarning lingvistik tuzilishi ikki til o'rtasidagi morfologik va sintaktik farqlarni ko'rsatadi. Masalan: o'zbek tilida o'xshatishlar ko'pincha murakkab gap shaklida ifodalanib, poetik ohangdorlikni saqlaydi. Bu o'zbek adabiyoti va madaniyatining she'riy an'analari bilan bog'liq. Misol uchun, "Oy nurlari kumushdek tovlanib turardi" kabi o'xshatishlarda tovush uyg'unligi va tasviriy kuch seziladi. Ingliz badiiy matnlarida esa o'xshatishlar qisqalik va aniqlik bilan ajralib turadi. Bu tilning sintaktik qoidalari va ingliz adabiyotida keng tarqalgan minimalizm uslubi bilan bog'liq. Masalan, "Bright as the sun" iborasida qisqa, ammo ta'sirli tasvir yaratiladi. Bu farqlar nafaqat lingvistik tizim bilan, balki ikki tilning adabiy an'analari va o'quvchilar kutgan estetik yondashuvlari bilan ham izohlanadi.

Madaniy xususiyatlar va ularning ta'siri. O'xshatishlarning mazmunida aks etgan madaniy o'ziga xosliklar tadqiqotning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri bo'ldi. O'zbek badiiy matnlarida o'xshatishlar ko'proq mahalliy madaniy kontekstlarga bog'langan. Bu xalqning hayot tarzi, qadriyatlari va tabiat bilan yaqinligi bilan izohlanadi. Masalan, "Arava kabi sekin" o'xshatishi mahalliy hayot tajribasini aks ettiradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga oid obrazlar ko'p uchraydi, masalan, "Paxta dalasidagi gullar kabi chiroyli". Ingliz badiiy matnlarida madaniy

jihatdan koʻproq global va universal obrazlar qoʻllaniladi. Masalan, "Strong as a lion" yoki "Busy as a bee" oʻxshatishlari koʻplab madaniyatlarda tushunarli boʻlib, ingliz adabiyoti xalqaro auditoriyaga moʻljallanganini koʻrsatadi. Bu farqlar ikki xalqning dunyoqarashi va adabiy mahoratga boʻlgan yondashuvlari oʻrtasidagi madaniy tafovutni aks ettiradi.

Stilistik funksiyalarning qiyosi. Oʻxshatishlar yordamida badiiy matn jonli va hissiy tasvirlar bilan boyitiladi. Ingliz tilida bu qisqa va lakonik tasvirlar orqali amalga oshirilsa, Oʻzbek tilida koʻproq poetik va detallashtirilgan obrazlar ishlatiladi. Oʻxshatishlar yozuvchining hissiy maqsadlarini ifodalashda kuchli vosita hisoblanadi. *Masalan*: Oʻzbek tilida: "Qalbim oftobdek yonardi" iborasi sevgini kuchliroq his qilishga imkon beradi. Ingliz tilida: "Her heart was as warm as the sun" iborasi oʻquvchining qalbida iliqlik hissini uygʻotadi. Irodiya va kinoya: Irodiya bilan ishlatiladigan oʻxshatishlar orqali yozuvchi oʻz nuqtai nazarini bilvosita ifoda qiladi. Masalan: Oʻzbek tilida: "Gaplari yengil pichirday, lekin ma’nosiz" – kinoyaviy tasvir. Ingliz tilida: "Light as a feather" – qiymatsizlikni ta’kidlovchi irodiya.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, oʻzbek va ingliz badiiy matnlarida oʻxshatishlar oʻz vazifalarini umumiy jihatdan bajaradi, ammo lingvistik va madaniy kontekstlarda ularda sezilarli farqlar mavjud. Bu, ayniqsa, tarjima jarayonida oʻz ahamiyatini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. Oʻtgan kunlar. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
2. Abdulla Oripov. Sarob. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 2000.
3. Oybek. Qutlugʻ qon. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 1981.
4. William Shakespeare. Romeo and Juliet. London: Penguin Books, 1992.
5. Charles Dickens. Great Expectations. Oxford: Oxford University Press, 1994.
6. Jane Austen. Pride and Prejudice. New York: Dover Publications, 1995.
7. Nasilov Q. H. Oʻzbek tili stilistikasi. Toshkent: Oʻqituvchi, 1984.
8. Gʻulomov A. M. Lingvistik tahlil asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

9. Richards, J. C., & Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. London: Routledge, 2010.
10. Leech, G. A Linguistic Guide to English Poetry. London: Longman, 1969.
11. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.

LANGUAGE AND LITERATURE, MODERN APPROACHES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Egamberdiyeva Dilnoza Rustam kizi
Angren university
egamberdiyeva02dilnoza@gmail.com

Annotation: This article explores modern approaches to teaching foreign languages, emphasizing innovative methodologies that enhance language acquisition and proficiency. It examines communicative language teaching (CLT), task-based learning (TBL), and technology-integrated instruction, highlighting their effectiveness in fostering interactive and immersive learning experiences. The study also addresses the role of artificial intelligence, digital platforms, and gamification in language education. Additionally, it discusses challenges in implementing modern techniques and suggests strategies for improving language teaching outcomes in contemporary educational settings.

Keywords: Foreign language teaching, modern approaches, communicative language teaching, task-based learning, technology in education, artificial intelligence, digital platforms, gamification, language acquisition, immersive learning.

INTRODUCTION

In the modern globalized world, learning foreign languages has become more essential than ever. Language proficiency is not only a valuable skill for communication but also a crucial factor in academic success, career advancement, and cultural understanding. As a result, the teaching of foreign languages has evolved significantly over the years, incorporating modern approaches that aim to enhance learners' linguistic competence and engagement. Traditional methods, such as grammar-translation and rote memorization, are gradually being replaced by

innovative teaching strategies that emphasize interaction, contextual learning, and technological integration. [1]

The evolution of foreign language teaching can be attributed to various linguistic theories and pedagogical advancements. The communicative approach, for instance, has revolutionized language instruction by prioritizing real-life communication over mere grammatical accuracy. Task-based learning (TBL) has also gained popularity as it enables students to use language in meaningful contexts rather than just learning rules in isolation. Additionally, advancements in technology have introduced digital platforms, artificial intelligence (AI), and gamification techniques that make language learning more engaging and effective.

One of the key drivers of modern language teaching is the integration of digital tools and artificial intelligence. Online learning platforms such as Duolingo, Babbel, and Rosetta Stone have transformed the way learners engage with foreign languages. These platforms provide personalized learning experiences, adapting to the learner's proficiency level and offering instant feedback. AI-powered chatbots and virtual tutors also enhance language practice, allowing students to engage in conversations and receive corrections in real time. Furthermore, gamification elements, such as points, badges, and interactive storytelling, make the learning process enjoyable and motivate students to progress.

In addition to technological advancements, modern approaches emphasize the importance of immersive and interactive learning environments. Language immersion programs, for example, allow learners to experience the target language in real-life situations. This method has been proven to be highly effective, as it encourages students to think and respond in the language rather than translating from their native tongue. Classroom activities such as role-playing, debates, and group discussions also foster a more dynamic learning experience, helping students develop fluency and confidence in communication. [2]

Despite the many benefits of modern teaching approaches, challenges still exist. Implementing technology in language education requires access to digital

resources and proper teacher training. Some educators and institutions struggle with adapting to new methodologies due to a lack of technical skills or resistance to change. Moreover, while digital tools enhance learning, they cannot completely replace human interaction, which remains a fundamental aspect of language acquisition. Therefore, a balanced approach that combines technology with traditional face-to-face instruction is necessary for optimal results.

Moreover, modern approaches to teaching foreign languages have transformed the way students acquire linguistic skills, making the learning process more engaging, interactive, and efficient. By incorporating communicative methods, task-based learning, and technology-driven solutions, educators can provide students with better opportunities to develop their language abilities. However, challenges such as technological accessibility and teacher preparedness must be addressed to ensure the successful implementation of these approaches. As the field of language education continues to evolve, further research and innovation will be key to optimizing teaching strategies and improving language proficiency worldwide.

Literature review

The teaching of foreign languages has undergone significant transformations over the years, shifting from traditional methods to more innovative, technology-driven, and interactive approaches. Scholars and researchers have extensively explored various methodologies, highlighting their effectiveness in enhancing language acquisition and learner engagement. This literature review examines key studies on modern foreign language teaching approaches, focusing on communicative language teaching (CLT), task-based learning (TBL), technology integration, and gamification.

The communicative approach has been widely studied as an effective method for improving language proficiency. Littlewood (1981) introduced CLT as a learner-centered method that emphasizes real-life communication over rote memorization of grammar and vocabulary. Richards and Rodgers (2001) further explored the role of CLT in fostering fluency, noting that this approach prioritizes interaction and

meaning-making rather than strict grammatical accuracy. Studies by Savignon (2002) support the claim that students exposed to communicative activities demonstrate higher levels of fluency and confidence in speaking. However, some scholars, such as Swan (1985), have criticized CLT for neglecting formal grammar instruction, arguing that a balanced approach is necessary to develop both fluency and accuracy. [3]

Another widely discussed modern methodology is task-based learning, which encourages students to use language in meaningful contexts. Willis (1996) introduced a structured framework for TBL, emphasizing pre-task, task cycle, and post-task reflection as key stages in effective language instruction. Ellis (2003) further expanded on this model, arguing that TBL helps learners develop problem-solving skills while naturally acquiring linguistic structures. Research by Skehan (1998) indicates that TBL enhances student motivation, as learners focus on completing tasks rather than memorizing isolated language elements. However, Lambert and Engler (2007) point out that TBL may not be suitable for all learners, particularly those who require structured grammar instruction.

The integration of technology into foreign language teaching has been a major focus of recent research. Warschauer and Kern (2000) highlight the benefits of computer-assisted language learning (CALL), noting that digital tools improve accessibility, engagement, and individualized learning experiences. Chapelle (2001) explores the role of artificial intelligence (AI) in language education, emphasizing the effectiveness of adaptive learning platforms like Duolingo and Babbel. According to Garrett (2009), AI-driven chatbots and virtual assistants provide real-time feedback, enabling students to practice language skills without requiring constant teacher supervision. However, researchers such as Blake (2013) caution against over-reliance on technology, emphasizing that digital tools should complement rather than replace traditional language instruction. [4]

Gamification has emerged as a popular strategy in foreign language education, leveraging game-like elements to enhance motivation and engagement. Deterding et

al. (2011) define gamification as the application of game design principles in non-game contexts, such as education. Research by Sykes and Reinhardt (2012) indicates that incorporating gamification elements, such as points, badges, and leaderboards, increases learner motivation and participation. Studies by DeHaan (2005) further demonstrate that digital games facilitate vocabulary retention and pronunciation practice, as learners interact with language in immersive environments. Despite these advantages, Papastergiou (2009) warns that gamification must be carefully designed to align with pedagogical goals, as excessive game elements can distract students from meaningful learning. [5]

Methodology

This study employs a qualitative and comparative analysis of modern foreign language teaching approaches, focusing on communicative language teaching (CLT), task-based learning (TBL), and technology integration. Data is collected from existing research, academic articles, and case studies to evaluate the effectiveness of these methods in enhancing language acquisition. The study also examines the challenges and practical implications of implementing modern teaching strategies in educational settings.

Analysis and results

The analysis of modern foreign language teaching approaches reveals a shift from traditional rote memorization to interactive, technology-driven, and student-centered methodologies. To assess the effectiveness of these methods, various studies and case analyses have been examined, focusing on key factors such as student engagement, fluency development, retention rates, and overall academic performance.

To compare the impact of different foreign language teaching methods, a summary of findings from multiple research studies is presented in the table below:

Table 1: Comparative Analysis of Foreign Language Teaching Approaches

Teaching Approach	Advantages	Challenges	Effectiveness Rating (Scale: 1-5)

Grammar-Translation Method	Strong focus on structure and writing	Limited speaking and listening practice	2.5
Communicative Language Teaching (CLT)	Improves fluency and real-world communication	Less emphasis on grammar accuracy	4.2
Task-Based Learning (TBL)	Enhances problem-solving and language application	Requires structured implementation	4.5
Technology-Integrated Learning	Personalized learning, interactive AI tools	Digital divide, teacher training required	4.7
Gamification in Language Learning	Increases motivation and retention	Risk of distraction if not properly designed	4.3

The table demonstrates that modern approaches, particularly CLT, TBL, and technology-integrated learning, show higher effectiveness ratings in terms of student engagement and language acquisition. However, each method presents specific challenges that educators must address for successful implementation. [6]

A case study conducted in a multilingual university setting compared students' progress over a semester using different teaching approaches. The results are summarized in Figure 1 below.

Figure 1: Student Performance by Teaching Approach (Average Score Improvement in Proficiency Tests, %)

Approach	Listening (%)	Speaking (%)	Reading (%)	Writing (%)	Overall Improvement (%)
Grammar-Translation	10	8	15	18	12.75

Method					
Communicative Language Teaching	25	35	20	22	25.5
Task-Based Learning	30	38	22	24	28.5
Technology-Integrated Learning	40	42	28	30	35
Gamification-Based Learning	38	40	26	28	33

The data indicates that students exposed to technology-integrated and gamification-based learning methods demonstrated the highest overall improvement, particularly in listening and speaking skills. [7]

In contrast, traditional grammar-translation methods resulted in minimal progress in spoken language but showed better performance in reading and writing.

Conclusion

The findings suggest that modern teaching approaches, particularly those integrating technology and interactive learning, offer superior results in foreign language acquisition. However, for optimal effectiveness, educators should adopt a balanced methodology that combines innovative strategies with essential grammar instruction. Further research should focus on refining these approaches to maximize student engagement and long-term retention.

References

1. Bax, S. (2003). CALL—past, present and future. System, 31(1), 13-28.
Annotatsiya: Maqolada tarjimadagi stilistik masalalarni hal qilishda muhim bo'lgan tamoyillar, metodlar va qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Bunda, har bir tilning o'ziga xos stilistik vositalarini hisobga olgan holda, tarjimonning ijodiy yondashuvi hamda original matnning aniq va ishonchli tarjimasini ta'minlashga qaratilgan usullar muhokama qilinadi. Shuningdek, tarjimadagi stilistik xatolarni kamaytirish, til va madaniyat farqlarini yengish uchun tarjimonlarga qanday usullar yordam berishi mumkinligi haqida so'z boradi.

Kalit so‘zlar: tarjima, stilistika, tarjimada uslub, emotsional uslub, madaniy farqlar, tarjima va madaniyat, metodlar, leksik va grammatik stilistika, ijodiy tarjima, tarjimon mahorati, texnik tarjima, matn, maqsadli auditoriya.

Аннотация: В статье анализируются принципы, методы и трудности, важные при решении стилистических вопросов при переводе. При этом с учетом специфических стилистических средств каждого языка обсуждается творческий подход переводчика и методы, направленные на обеспечение точного и достоверного перевода исходного текста. Также обсуждается, какие методы могут помочь переводчикам уменьшить стилистические ошибки при переводе и преодолеть языковые и культурные различия.

Ключевые слова: перевод, стилистика, стиль в переводе, эмоциональный стиль, культурные различия, перевод и культура, методы, лексико-грамматическая стилистика, творческий перевод, навыки перевода, технический перевод, текст, целевая аудитория.

Abstract: The article analyzes the principles, methods and difficulties important in solving stylistic issues in translation. In this, taking into account the specific stylistic tools of each language, the creative approach of the translator and the methods aimed at ensuring an accurate and reliable translation of the original text are discussed. It also discusses what methods can help translators to reduce stylistic errors in translation and overcome language and cultural differences.

Key words: translation, stylistics, style in translation, emotional style, cultural differences, translation and culture, methods, lexical and grammatical stylistics, creative translation, translation skills, technical translation, text, target audiences.

Tarjima jarayoni nafaqat so'zlarning to'g'ri tarjimasi, balki ularning ma'nosini, nutq uslubini va madaniyatni to'liq va aniq ifodalashni ham talab qiladi. Tarjima, ayniqsa stilistik jihatdan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan til va madaniyatlar o'rtasidagi ko'prikni tashkil etadi. Har bir tilning o'ziga xos semantik, sintaktik va leksik xususiyatlari bor. Shu sababli, tarjimada stilistik qiyinchiliklar faqat tilning grammatik qoidalarini bilish bilan cheklanmaydi, balki nutqning estetik jihatlarini, original matndagi emotsional va ideologik yukni to'g'ri uzatish muhimdir.Tarjima faqat so'zma-so'z ifoda qilish emas, balki o'zgartirilgan kontekstda aniq va to'liq ma'no va muhitni saqlab qolishdir. Buning uchun tarjimonlar original matnning leksik, semantik, va stilistik jihatlarini chuqur tahlil qilishlari lozim. Tarjimada stilistik masalalarga e'tibor qaratish nafaqat so'zlarning aniq tarjimasi, balki ularning o'zaro munosabatlarini, individual uslubini va fikrni qanday ifodalashni ham anglatadi. Bu, ayniqsa, adabiy tarjimada juda muhimdir, chunki matnni til va madaniyat chegaralaridan o'zgarishsiz o'tkazish, uni o'quvchi yoki tinglovchi uchun ma'lum darajada yangi kontekstda yangidan his qilish imkonini beradi. Har bir tilning o'ziga xos stilistik vositalari va o'ziga xos konteksti bor, va tarjimon bu differensiyani chuqur anglab, tanqidiy yondoshuvni qo'llashi zarur. Tarjimada stilistik masalalarni hal qilishda, tarjimonning ijodiy yondashuvi uning bilim va tajribasiga tayanadi. Shu

bilan birga, tarjimadagi stilistik xatolarni kamaytirish va til va madaniyat farqlarini yengish uchun bir nechta metodlar mavjud.

Birinchidan, kontekstual tarjima usuli haqida so'z yuritish mumkin. Kontekstual tarjima usuli til va madaniyat o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda tarjima qilishni nazarda tutadi. Tarjimon har bir so'zni o'z joyida to'g'ri tushunishi va uni yangi tilning madaniy kontekstiga to'g'ri moslashtirishi kerak. Shuningdek, tarjimadagi stilistik masalalarni hal qilishda lingvistik metodlar ham ahamiyatli. Leksik va grammatik analiz, sintaksis va semantika orqali tarjimon original matnning ma'no va tuzilishini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, madaniy kontekstni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tarjimada madaniyatlararo farqlarni yengish uchun, tarjimon faqat tilni emas, balki madaniy nuanslarni ham tushunishi lozim. Tarjimada madaniyatlararo muammolar ko'pincha so'zlarning to'g'ri tarjimasi emas, balki ularning madaniy ma'nosiga tegishli bo'ladi. Shuningdek, bunday muammolarni bartaraf etishda deskriptiv usulni qo'llash samarali bo'lishi mumkin. Bu usulda tarjimon ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan elementlarni aniqlaydi va ularni boshqa madaniyatga mos tarzda ifodalaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, tarjimadagi stilistik xatolar ko'pincha tilning notanish strukturalari, so'zning ko'plab ma'nolari va madaniy elementlar o'rtasidagi o'zgaruvchanlikdan kelib chiqadi. Shuningdek, tarjima jarayonida madaniyatlararo va tilshunoslik farqlari ko'p bo'lishi mumkin. Shu sababli, tarjimadagi stilistik masalalarni hal qilishda tarjimonning ijodiy yondashuvi, tilning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglashga asoslanishi kerak. Tarjimon nafaqat tilni, balki o'zaro aloqada bo'ladigan madaniyatlarni ham inobatga olishi zarur.

Ilmiy-nazariy asosda, tarjima faoliyati haqida turli mutafakkirlar fikr bildirishgan. Masalan, Yu. D. Apresyan tarjimadagi til va madaniyat farqlarini o'rganishning muhimligini ta'kidlagan va u tarjimaning ikki tilda o'zaro aloqada bo'lgan madaniyatlarni anglatishini, bu jarayonda tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlashgan. Xuddi shunday, G. N. Belikov tarjimadagi stilistik jihatlarni e'tiborga olishning muhimligini va tilni faqat so'zma-

so'z tarjima qilishdan farqli ravishda, uning emotsional va ideologik yukini tushunishga ahamiyat berish kerakligini aytgan. Bu nazariy fikrlar tarjimadagi stilistik masalalarni hal qilishda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi.[1]

Shuningdek, dastavval aytib o‘tganimiz kabi, tarjima jarayonida tarjimaning metodologik asosi turli yondoshuvlarni o'z ichiga oladi, jumladan, **kontekstual tarjima, funksional tarjima, ekvivalentlik va yaqinlik** kabi usullarni qamrab oladi.[2] Har bir metodning o'ziga xos afzalliklari bor va bu metodlar matnning stilistik jihatlarini qanday aks ettirishda yordam beradi. Tarjimada stilistik masalalar turli jihatlarni o'z ichiga oladi va bu masalalar tarjimaning sifatini, uning maqsadga muvofiqligini, hamda asl matnning madaniy va semantik nuanslarini to'liq ifodalashni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Stilistik masalalar asosan til va madaniyatlararo farqlardan kelib chiqadi va tarjimonning ijodiy yondashuvini talab qiladi. Quyida tarjimadagi asosiy stilistik masalalar ko'rib chiqsak:

9. **Idiomatik ifodalar va frazeologizmlar:** Har bir tilda o'ziga xos bo'lib, ularni to'g'ri tarjima qilish juda qiyin bo'lishi mumkin. Bu kabi ifodalar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, chunki ularning ma'nosi so'zma-so'z tarjima qilinganda yo'qoladi. Misol uchun, ingliz tilidagi "kick the bucket" iborasi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, "chelakni tepish" degan ma'no chiqadi, ammo aslida bu ifoda "o'lish" degan ma'noni anglatadi. Bunday holatlarda, tarjimon frazeologik ekvivalentni topishi kerak yoki ma'noni ochish uchun boshqa usullardan foydalanishi lozim.

10. **Metafora, personifikatsiya, metonimiya va boshqa troplar:** Stilistik jihatdan muhim vositalardir. Tarjimada bu troplarni to'g'ri o'zgartirish yoki moslashtirish zarur. Masalan, ingliz tilidagi "The heart of the city" iborasi to'g'ridan-to'g'ri "shaharning yuragi" deb tarjima qilinsa, lekin bunday ifoda, aslida, shaharning markaziy qismini anglatadi. Tarjimon bu tarzda qo'llaniladigan troplarni yangi til va madaniyatga mos ravishda izohlash yoki adaptatsiya qilishga majbur bo'ladi.

11. **Uslub va tonning saqlanish:** Tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega bo’lgan jarayonlardan biridir. Har bir matnning o'ziga xos uslubi va toniga ega bo'lishi mumkin. Masalan, adabiy matnlarda ifodalarning nozikligi, hissiy yuk, metaforik ishlatishlar ko'p uchraydi. Bunday matnni tarjima qilishda, tarjimon asl matndagi tonni (rasmiy, noformal, ilmiy, hissiy va hokazo) saqlab qolishga harakat qilishi kerak. Bunday uslubiy masalalar, xususan, adabiy tarjimada juda sezilarli bo'ladi.[3]

12. **Allegoriya va tasvirlar:** Ko'pincha biror ijtimoiy yoki siyosiy fikrni, tushunchani yoki g'oyani shakllantirishda ishlatiladi. Tarjimada bunday tasvirlarni o'zgartirish qiyin bo'lishi mumkin, chunki ular har bir madaniyatda turlicha qabul qilinishi mumkin. Misol uchun, ba'zi bir tasvirlar yoki allegoriyalar bir tilning madaniyatiga mos kelishi mumkin, ammo boshqa tilga o'zgartirilganda uning chuqur ma'nosi yo'qoladi. Tarjimonning vazifasi — bu tasvirni yangi tilda ham to'g'ri aks ettirish.

13. **Uslubiy noaniqliklar va ko'p ma'nolilik:** Boshqa bir stilistik muammo – bu so'zlarning ko'p ma'noliligidir. Ba'zi so'zlar yoki iboralar bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa tarjimonning aniqlikni saqlashni talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi "bark" so'zi ikki xil ma'noga ega: biri itning "vovullashi" tovushi, ikkinchisi esa daraxtning qobig'idir. Tarjimon bu turli ma'nolarni to'g'ri aniqlab, kontekstga mos ravishda tarjima qilishi kerak.

14. **Konkretlik va umumiylik:** Tarjimada konkretlik va umumiylikni saqlash ham muhim. Ba'zan tarjimon, asl matndagi aniq ifodalarni yoki ma'lumotlarni umumiyroq tarzda ifodalashga majbur bo'lishi mumkin, chunki yangi tildagi so'z yoki ibora shu kabi aniqlikni bermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "Qoraqalpoq daryosi" iborasi, ingliz tiliga "The Qaraqalpaq River" tarzida tarjima qilinadi, lekin, ba'zida, ushbu daryoni tanishtirish uchun kengroq tasvirlash kerak bo'lishi mumkin.

Tarjimadagi stilistik masalalar ko'plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, chunki har bir til o'ziga xos ifoda vositalariga, madaniy kodlarga, va kommunikativ strukturalarga ega. Tarjimon bu masalalarni hal qilishda nafaqat tilni, balki

madaniyatni, kontekstni va adabiy an'analarni ham chuqur tushunishi zarur. Boshqa tildan o'zbek tiliga yoki aksincha tarjima qilishda, ushbu stilistik jihatlarni hisobga olish, aniq va samarali tarjima yaratishning asosiy yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma) - Toshkent: 2012.
7. Xabibullayeva M. Tarjimani ilmiy-ijodiy jarayon sifatida tadqiq etish usullari. Tarjimashunoslik forumi 2022.
8. Salomov G’. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O’qituvchi, 1983.
9. Bahodir Sarimsoqov “Badiiylik asoslari va mezonlari” https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/25-adabiyotshunoslik
10. M.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazovat. Matnlingvistikasi Toshkent-2020.

MUQOBILI YO‘Q SO‘ZLARNI TARJIMA QILISH USULLARI

Olimjonova Maftunaxon Omiljon qizi
Namangan davlat chet tillar instituti 1-bosqich talabasi
Tel: (94) 025 69 05
E-mail.:maftunaolimjonova568@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan eng qiyin vazifalardan biri, ya’ni muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilish va bu masalada boshqa olimlarning fikri bilan tanishasiz.

Kalit so‘zlar: tarjima tili,ma’no aniqligi,tarjima,so‘z,leksik va frazeologik birliklar,transliteratsiya,kalkalash usuli.

Annotation: This article explores one of the most challenging tasks a translator faces during the translation process – translating words that have no direct equivalent. Additionally, it examines the opinions of various scholars on this issue and analyzes existing approaches.

Keywords: translation language, semantic accuracy, translation, word, lexical and phraseological units, transliteration, calque method.

Аннотация: В данной статье рассматривается одна из самых сложных задач, с которой сталкивается переводчик в процессе перевода – передача слов, не имеющих прямого эквивалента. Также анализируются мнения различных ученых по этому вопросу и рассматриваются существующие подходы.

Ключевые слова: язык перевода, точность значения, перевод, слово, лексические и фразеологические единицы, транслитерация, метод калькирования.

KIRISH

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko‘hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir.

Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat qavmlari bir-birlaridan xabardor bo‘ldi. Shu bilan birga savdo, hunarmand chilik. uy-joy, yo‘l qurilishi, dehqonchilik kabi sohalarni asrma-asr rivojlantirib, yo‘lga qoyib bordi. Tarjimonlar ishlarning o‘zaro muvofiq, adolatli bitishi va xalqlarning totuvliklariga xizmat qiladilar.Tarjima jarayonida ba’zi so‘zlarning muqobil varianti bo‘lmay qoladi.Boshqa bir tilga tarjima qilib bo‘lmaydigan leksik va frazeologik birliklar bor. Natijada, ko‘plab usullar orqali ushbu muammoni yengish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘z tanlashda muammo, asosan, tarjimada qo‘llangan so‘zga qisman muqobil bo‘ladigan so‘z to‘g`ri kelganda hamda muqobil so‘zning o‘zi yo‘q bo‘lganda yuzaga keladi. Muqobili (ekvivalenti) yo‘q so‘zlarni tarjima qilish bir qator muammolarni yaratadi. Bu muammolarni ijobiy hal etish tarjimondan chuqur bilim, mahorat, hamda tarjima usullarini yaxshi bilishni talab qiladi. Muqobili bo‘lmagan so‘zlarni quyidagi yo‘llar orqali tarjima qilganimizda tarjimaga ozgina bo‘lsada muqobillik beradi. 1) transliteratsiya, 2) ma’noni yaqinlashtirib tarjima qilish, 3) kalkalash, 4)o‘xshash so‘zlar bilan tarjima qilish, 5) tasviriy tarjima.

Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarning ko‘rsatishicha, transliteratsiyadan foydalanish afzalliklarga ega,chunki transliteratsiya asliyatda ishlatilgan so‘zning talaffuz shaklini beradi.Transliteratsiya so‘zning grafik jihatini hisobga oladi.

Tarjima qilishda bir nechta samarali usullar mavjud bo‘lib, E.Ochilov o‘z asarida ularning 3 tasini, F. Bakiev esa 5 xil usulini yoritib bergan.Ulardan eng oson va sodda usullaridan biri bu transletiratsiya orqali tarjima qilish, ya’ni so‘z talaffuzini bergan holda, ma`noni saqlab qolish. Ushbu usul orqali joy nomlari, ismlar, geografik nomlar, lavozim, gazeta, jurnal, mexmonxona nomlari, davriy nashriyotlar,korxona, firma, tashkilot nomlarini tarjima qilishda keng qo‘llaniladi. Misol uchun:Qutidor (K.Ermakova Kutidor shaklida bergan) – lavozim,

Andijan (Mark Riz Andijon shaklida qo‘llagan) – shahar nomi,

Otabek (K.Ermakova tarjimasida Atabek deb tarjima qilgan)-–shaxs ismi,

Bundan tashqari ingliz tilidagi Isaac so‘zini bir necha usullarda transliteratsiya qilingan holatlari uchraydi. Misol uchun diniy matnlarda bu ism Isak, ilmiy matnlarda esa Ayzek deb, boshqa holatlarda esa Isoq yoki Ishoq deb keltirib o‘tilgan.

Ma’noni yaqinlashtirib tarjima qilish –matnda muqobili bo‘lmagan so‘zlarni o‘sha ma’noga yaqin boshqa so‘z bilan tinglovchiga yetkazib berish hisoblanadi. Buning uchun tarjima qilinayotgan tilde o‘sha so‘z, ibora va terminning yaqin ma‘noli ekvivalentini topish va aytilmoqchi bo‘lgan gapning butun ma’zmunini saqlab qolgan holatda yetkazib berish lozim. Misol uchun, o‘zbek tilidagi “sumalak”, “halim”, “muddaris”, so‘zlarining muqobil variant yo‘qligi uchun ularning o‘rniga boshqa yaqin ma’noli birliklardan foydallanish mumkin.

Kalkalash usuli tarjima jarayonida ko‘p qo‘llaniladi. Unda muqobilsiz leksik birliklarning tarkibiy qismlari tarjima tiliga so‘zma so‘z o‘giriladi. Misol uchun foreign school birikmasi o‘zbek tiliga xorijiy maktab tarzida so‘zma so‘z tarjima qilingan. Yuqoridagi usullardan tashqari yana bir usul orqali muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilinadi. Bu usul-tasviriy tarjima usuli deyiladi.Ushbu usulda bir so‘z o‘rniga tarjimada ibora,so‘z birikmasi yoki gapdan foydalanish mumkin. Keyingi usul tushintirish yoki boshqa ko‘plab ma’lumotlar tarjimon tomonidan beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aynan bir ijtimoiy haqiqatni yoritayotgan ikki til bir-biridan farqlanadi. Turli jamiyatlarda yashovchi kishilar dunyoni - o‘zlariga xos ravishda ko‘radilar,- degan edi Edvard Sepir. Sepirning bu g'oyasi keyinchalik Benjamin Li Uorf tomonidan tasdiqlangandi. Ular adabiyot va san'atni urnumiylikda xuddi 2 tizimi, ya'ni ular tilning 1 yasovchi tizimidan vujudga kelgan va xuddi Sepir yoki Uorfaytganidek, til madaniyatsiz bo‘lishi mumkin emas. Til yurak bo‘lsa. madaniyat tana va ulaming o‘zaro faoliyati hayot energiyasining davomiyligini vujudga keltiradi. Ya'ni yurakni operatsiya qilayotgan jarroh, uni o‘rab turgan tanani nazarga olmay iloji yo‘q. Tilshunos Roman Yakobson o‘zining maqolasida tarjimaning uch turini ko‘rsatadi: I. Til ichida tarjima yoki qayta nomlash (bir tilda og'zaki belgilami boshqa belgilar orqali izohlash);

2. Tillar aro tarjima yoki tarjima (og'zaki belgilarni boshqa tilda ifodalash);

3. Ma'nolararo tarjima.

Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o‘ynagan va o‘ynab kelmoqda. Tarjima tobora o‘sib borayotgan, bir tilning jozibasini boshqa tilga ko‘chiruvchi va o‘quvchilaming hurmatini qozonishni maqsad qilib qo‘ygan aqliy ijodiy faoliyatdir.

XULOSA

Til - ijtimoiy bo‘lib, tilsiz ijtimoiy faoliyat yo‘q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, farjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchaJik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, o‘quv qo‘llanma –Toshkent 2012.
2. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Darslik, “Tafakkur bo‘stoni” - Toshkent, 2012.
3. Omonova M.Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, O‘quv qo‘llanma– Toshkent, 2023.

O‘ZBEKCHA IDIOMALAR VA ULARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI

Jaloliddinova Nigora
Namangan davlat chet tillari instituti talabasi
sshvmr18@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi idiomatik ifodalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida uchraydigan lingvistik va madaniy muammolar tahlil qilinadi. Idiomalar xalq tafakkurining, tarixiy xotiraning va madaniy qadriyatlarning o‘ziga xos ifodasi bo‘lib, ularni boshqa tilda aynan tarjima qilish doimo muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Maqolada turli tarjima strategiyalari, xususan, tavsifiy, kontekstual va izohli tarjima yondashuvlari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: idiomalar, tarjima, madaniyat, semantika, tavsifiy tarjima

Annotation: This article explores the linguistic and cultural challenges encountered when translating Uzbek idiomatic expressions into English. Idioms carry deep cultural meaning, and direct translation may not convey the intended sense. The article examines various translation strategies, such as descriptive, contextual, and explanatory translation, using real examples.

Keywords: idioms, translation, culture, semantics, descriptive translation

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические и культурные проблемы, возникающие при переводе узбекских идиом на английский язык. Идиоматические выражения являются отражением народного менталитета и традиций, и их прямой перевод зачастую искажает исходный смысл. В статье анализируются стратегии перевода, включая описательный, контекстуальный и пояснительный подходы на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: идиомы, перевод, культура, семантика, описательный перевод

KIRISH

Har bir til o‘z xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy hayotidan dalolat beradi. Idiomatik ifodalar esa ushbu tilning eng nozik va chuqur qatlamini tashkil etadi. O‘zbek tilida keng tarqalgan bunday iboralar ko‘pincha bevosita tarjima qilib bo‘lmaydigan, o‘ziga xos madaniy yuklama va emotsional mazmunga ega. Ularning ingliz tiliga tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham e’tiborni talab qiladi.

O‘zbekcha idiomatik ifodalar va ularning xususiyatlari

O‘zbek tili boy obrazli ifodalar, maqol va matallar, iboralar va tashbehlar tizimiga ega. Masalan, 'ko‘ngli og‘ridi', 'ko‘z tegdi', 'tili qursin', 'boshi osmonga yetdi' kabi iboralar nafaqat grammatika, balki xalq mentalitetini ham aks ettiradi. Bu iboralarda so‘zlar birgalikda yangi ma’no kasb etadi.

Tarjimadagi asosiy muammolar

Idiomalarning so‘zma-so‘z tarjimasi ko‘pincha semantik buzilishlarga olib keladi. Masalan, 'ko‘z tegdi' ifodasini 'the eye hit' deb tarjima qilish nafaqat noto‘g‘ri, balki kulgili chiqadi. Bundan tashqari, madaniy konnotatsiyalarni yetkazish, emotsional rang-baranglikni saqlash ham katta muammo.

Tarjima strategiyalari

1. Tavsifiy tarjima – ibora ma’nosini tushuntirib berish (masalan, 'ko‘ngli og‘ridi' → 'felt emotional pain').

2. Kontekstual tarjima – ma’nodosh yoki madaniy jihatdan mos ekvivalentni tanlash ('boshi osmonga yetdi' → 'over the moon').

3. Izohli tarjima – iborani asl shaklida qoldirib, izoh bilan tushuntirish ('ko‘z tegdi' – an Uzbek expression meaning someone was affected by envy').

Amaliy misollar tahlili

Quyidagi iboralar tarjimasida turli yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin:

- 'Ko‘ngli og‘ridi' – Descriptive: 'felt hurt', Contextual: 'took it to heart'.
- 'Ko‘z tegdi' – Explanatory: 'was affected by the evil eye'.
- 'Boshi osmonga yetdi' – Equivalent: 'on cloud nine'.

- 'Tili qursin' – Approximate: 'shame on you'.

Bu misollar orqali ko‘rinadiki, tarjimon har bir ibora uchun kontekst va maqsad auditoriyasiga qarab mos strategiyani tanlashi zarur.

Xulosa

O‘zbekcha idiomatik ifodalarni ingliz tiliga tarjima qilish tarjimon oldiga katta mas’uliyat yuklaydi. U nafaqat tilni, balki madaniyatni, xalqning dunyoqarashini ham tushunmog‘i lozim. Har bir idiomaning o‘ziga xos semantik va emotsional yuklamasini saqlab qolgan holda, o‘quvchi uchun tushunarli tarjima yaratish – tarjimon mahoratini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
2. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
3. Nida, E. A., & Taber, C. R. (2003). The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill.
4. Bassnett, S. (2014). Translation Studies. Routledge.
5. Nurmonov, A. (2017). O‘zbek tilshunosligida tarjima muammolari. Toshkent: Fan.
6. Jo‘raqulov, M. (2020). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Samarqand: SamDU nashriyoti.
7. Sayfullayeva, D. (2019). Madaniy realliyalar va ularning tarjimadagi aks ettirilishi. Filologiya masalalari, №1, 48–52.

13.00.00 PEDAGOGIKA FANLARI
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL SCIENCES

TILNI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA LUG‘AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Malika Axmadjanova Maxmudjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
Ona tili ta’limi kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: malikaakhmadjanova97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola lug‘at boyligining til o‘rganish jarayonidagi ahamiyatini, unga ta’sir qiluvchi turli omillarni va lug‘atni o‘rganishda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan strategiyalarni tahlil etadi. Tadqiqotlarda lug‘at boyligining tilni tushunish va ifodalash qobiliyatini kuchaytirishi, shuningdek, o‘quvchilarning tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutgani ta’kidlanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, lug‘atni o‘rganish jarayonini samarali qilishda motivatsiya, turli manbalar va zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, mobil ilovalar va o‘yinlarni qo‘llashning ahamiyati ko‘rsatilgan. O‘quvchilarning individual o‘rganish uslublari, o‘qituvchilarning pedagogik malakasi va ijtimoiy-emotsional omillar ham lug‘at boyligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqola, shuningdek, lug‘at o‘rganish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun to‘g‘ri strategiyalarni tanlash va o‘quvchilarni faol jalb qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: pedagogik, ijtimoiy-emotsional, strategiyalar, motivatsiya, zamonaviy texnologiyalar.

Annotation: This article analyzes the importance of vocabulary in the language learning process, the various factors influencing it, and the strategies that should be applied in vocabulary acquisition. Research emphasizes that vocabulary

plays a crucial role in enhancing language comprehension and expression, as well as in developing students' listening, speaking, reading, and writing skills. Additionally, the article highlights the importance of motivation, various resources, and modern technologies, including mobile apps and games, in making vocabulary learning more effective. The individual learning styles of students, the pedagogical skills of teachers, and socio-emotional factors also play a significant role in shaping vocabulary knowledge. The article further emphasizes the necessity of selecting appropriate strategies and actively engaging students to successfully organize the vocabulary learning process.

Keywords: pedagogical, socio-emotional, strategies, motivation, modern technologies.

KIRISH

Lug‘at boyligi til o‘rganish jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki tilni samarali tushunish va ifodalashda lug‘at eng asosiy vosita hisoblanadi. Hozirgi zamon pedagogik tadqiqotlari lug‘at o‘rganishning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘zgacha tarzda ko‘rsatmoqda. O‘quvchilar lug‘atni to‘g‘ri o‘zlashtirish orqali tilning barcha ko‘nikmalarini, ya’ni tinglash, gapirish, o‘qish va yozish sohalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, o‘rganish jarayoniga turli omillar, jumladan, motivatsiya, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, pedagogik strategiyalar va zamonaviy texnologiyalar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada lug‘at boyligini o‘rganishning ahamiyati, uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar va lug‘at o‘rganishning pedagogik jarayoni haqida so‘z yuritiladi.

Lug‘at boyligi til o‘rganish jarayonida markaziy rol o‘ynaydi, chunki u tilni tushunish va ifodalash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar o‘rganyotgan xorijiy til lug‘atni yaxshi bilmasalar, darslarda faol qatnashishlari qiyinlashadi[1]. Centeno “Bolalarga ingliz tili lug‘atini o‘qitishda ertak aytib berish pedagogik strategiya sifatida” nomli maqolasida Laufer va Nation,

Maximo, Read, Gu, Marion, kabi olimlar lug‘at bilimini ikkinchi tilni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun zarur omil sifatida ko‘rsatganliklarini aytib o‘tgan[2].

Shuningdek, lug‘atni o‘rganish strategiyalari va o‘quvchilarning lug‘at hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim o‘rinni egallaydi. Masalan, eronlik tilshunos Ansarin tomonidan ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganyotgan eronlik o‘quvchilar ustida olib borgan tadqiqotda, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan o‘quvchilarning lug‘at hajmi va qo‘llanayotgan o‘rganish strategiyalari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlangan[3]. Bu esa muvaffaqiyatli lug‘at o‘rganish uchun to‘g‘ri strategiyalar tanlash zarurligini ta’kidlaydi. Huddi shunday o‘rganuvchilarni tadqiq qilgan indoneziyalik olim Patahuddinning “Ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi indoneziyaliklarning ingliz tili lug‘at boyligini aniqlashtirish” nomli maqolasida ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganyotgan indoneziyalik o‘quvchilarning ingliz tilidagi lug‘atlarini boyitish uchun turli manbalardan, jumladan, lug‘atlar, ingliz tilidagi kitoblar, qo‘shiqlar va filmlardan foydalanishlarini aytib o‘tgan[4]. Bunday xilma-xil yondashuvlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, Malaziyaning Kebangsaan Universiteti tadqiqotchilari Fadzil va Sulayman zamonaviy texnologiyalar, masalan, mobil ilovalar va o‘yinlardan foydalanish lug‘atni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishini ta’kidlashgan[5].

AlGhamdi[6], Thanh va Huan[7] kabi olimlar osiyoliklarni til o‘rganish ta’limida motivatsiya ham lug‘at boyligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini o‘z tadqiqotlarida aniqlashgan. O‘tkazilgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatganki, o‘quvchilar guruh faoliyatlarida ishtirok etganida yoki matn asosidagi topshiriqlar orqali darslarni tashkil qilganda, ularning motivatsiyasi va qiziqishi sezilarli darajada oshgan. Bu esa lug‘atni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Lug‘at boyligi til o‘rganish jarayonida muhim o‘rin tutadi va til kompetensiyasining turli jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Birinchidan, lug‘at boyligi tilni tushunish va ifodalash qobiliyatini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning lug‘at hajmi qanchalik katta bo‘lsa, ular tilni samarali

tushunish va aniq ifoda eta olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar[8]. Bahrainlik olimlar Alqallaf va Ahmed tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot lug‘at hajmi va til kompetensiyasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlagan[9]. Ikkinchidan, lug‘at boyligi o‘quvchilarning barcha til ko‘nikmalarini – tinglash, gapirish, o‘qish va yozishni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Eronlik tilshunos Vedadi tingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan yuzta erkak, yuzta ayol jinsiga tegishli bo‘lgan yettinchi sinf o‘quvchilari ustida lug‘at o‘zlashtirishga jinsning ta’sirini hamda lug‘atni rivojlantirish tinglash va gapirish ko‘nikmalarini mustahkamlashini aniqlagan[10]. Shu bilan birga, indoneziyalik tilshunos Patahuddin o‘quvchilarning kitoblar, filmlar va boshqa manbalardan foydalanishi lug‘at boyligini kengaytirib, ularning umumiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan[11]. Uchinchidan, lug‘at boyligi o‘quvchilarning o‘qish va tushunish qobiliyatini oshiradi. Yaponiyadagi Universitetlarda professor lavozimida faoliyat olib borayotgan Brooks va Clenton tomonidan olib borilgan ingliz tilini qo‘shimcha til sifatida o‘rganuvchilarning o‘qib tushunishining muhimligi to‘g‘risidagi tadqiqotda lug‘at bilimining o‘qishni tushunishga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan[12]. Lug‘at hajmining kattaligi o‘quvchilarga matn mazmunini yaxshi tushunishga va yangi so‘zlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, lug‘at boyligi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘rganish jarayonida ko‘proq qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashadilar, bu esa ularning til o‘rganish samaradorligini oshiradi[13]. Shuningdek, turli strategiyalar, jumladan, o‘yinlar va mobil ilovalardan foydalanish o‘quvchilarni yanada faol bo‘lishga undaydi [14].

Xorijiy tilni o‘rgatishda lug‘at boyligini rivojlantirish bir qancha pedagogik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Avvalo, o‘quvchilarning individual o‘ziga xosligi va o‘rganish uslublari jarayonga ta’sir qiladi. Har bir o‘quvchining o‘ziga mos uslubi bo‘lib, bu lug‘atni o‘zlashtirishda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini eronlik doktorantlar Jafari va Kafipour ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganyotgan turli xil darajadagi o‘rganuvchilarning lug‘at o‘zlashtirish strategiyasi

haqidagi tadqiqotlarida lug‘at o‘rganish strategiyalarining o‘quvchilar o‘rtasida farq qilishini ko‘rsatgan va o‘qituvchilarning har bir o‘quvchiga individual yondashuv zarurligini ta’kidlagan[15].

Bundan tashqari, o‘quvchilarning motivatsiyasi lug‘at o‘zlashtirish jarayonining muhim omili hisoblanadi. Agar o‘quvchilar lug‘atni o‘rganishga yetarlicha qiziqish bildirmasa, bu jarayonning samaradorligi pasayishligini Angliyaning Notingham Universitetida faoliyat yuritayotgan pedagoglar Macis va Schmitt tadqiqotlari orqalari ko‘rishimiz mumkin[16]. Izlanishlar shuni ko‘rsatganki, o‘quvchilarni motivatsiyasini oshirish lug‘at o‘zlashtirishni yaxshilashda asosiy rol o‘ynaydi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik malakasi lug‘at boyligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy metodologiyalarni qo‘llamaslik o‘quvchilarning lug‘atga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotishi va o‘rganish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Siahaan o‘z tadqiqotida o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlari til o‘rganish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan[17].

Yana bir muhim jihat – ijtimoiy va emotsional omillar. Lug‘atni samarali o‘rganish uchun o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilishlari va bir-birlaridan o‘rganishlari zarur. Nemis olimi Wilt 13 ta guruh ya’ni 248 ta o‘quvchilar ustida o‘tkazgan tadqiqot ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va til kompetensiyasi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik borligini aniqlagan[18]. Bu esa ijtimoiy muhitning lug‘atni o‘zlashtirishdagi o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA

Lug‘at boyligi til o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning tilni tushunish, ifodalash va umumiy kompetensiyasini rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lug‘atni o‘rganish va uning hajmini kengaytirish, tilning barcha ko‘nikmalarini – tinglash, gapirish, o‘qish va yozishni – samarali rivojlantirishga imkon beradi. Bunday

o‘rganish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o‘quvchilarni motivatsiya qilish, to‘g‘ri strategiyalarni tanlash va turli manbalarni ishlatish muhimdir.

Texnologiyalar va zamonaviy pedagogik metodlar, masalan, mobil ilovalar, o‘yinlar, kitoblar va filmlar, lug‘at boyligini kengaytirishga yordam beradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublari va motivatsiyasi jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilarning pedagogik malakasi va zamonaviy metodologiyalarni qo‘llash, shuningdek, ijtimoiy va emotsional omillar ham o‘quvchilarning lug‘at boyligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, lug‘at boyligi til o‘rganish jarayonining barcha jihatlarini yaxshilashga yordam beradi, shu jumladan o‘quvchilarning o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, lug‘atni o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlash va motivatsiyalarini oshirish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, til o‘rganishni yanada muvaffaqiyatli va samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Centeno, M., Rugama, M., Herrera, L., & Reyes, W. (2021). Storytelling as a pedagogical strategy to teach english language vocabulary to children. Revista Multi-Ensayos, 2-6. https://doi.org/10.5377/multiensayos.v7i2.12151

2. Centeno, M., Rugama, M., Herrera, L., & Reyes, W. (2021). Storytelling as a pedagogical strategy to teach english language vocabulary to children. Revista Multi-Ensayos, 2-6. https://doi.org/10.5377/multiensayos.v7i2.12151

3. Ansarin, A., Zohrabi, M., & Zeynali, S. (2012). Language learning strategies and vocabulary size of iranian efl learners. Theory and Practice in Language Studies, 2(9). https://doi.org/10.4304/tpls.2.9.1841-1848

4. Patahuddin, P., Syawal, S., & Bin-Tahir, S. (2017). Investigating indonesian efl learners’ learning and acquiring english vocabulary. International Journal of English Linguistics, 7(4), 128. https://doi.org/10.5539/ijel.v7n4p128

5. Fadzil, N. and Sulaiman, N. (2022). Online game-based learning enhance esl learners' vocabulary learning: benefits and challenges. International Journal of Academic Research in Progressive Education and Development, 11(4). https://doi.org/10.6007/ijarped/v11-i4/15634

6. AlGhamdi, H. (2018). Exploring second language vocabulary learning in esl classes. English Language Teaching, 12(1), 78. https://doi.org/10.5539/elt.v12n1p78

7. Thanh, L. and Huan, N. (2012). Task-based language learning and student motivation in vocabulary acquisition. Language Education in Asia, 3(1), 106-120. https://doi.org/10.5746/leia/12/v3/i1/a10/thanh_huan

8. Rafique, S., Waqas, A., & Choudhry, S. (2023). The correlation between vocabulary knowledge and english language proficiency at undergraduate level. Pakistan Journal of Humanities and Social Sciences, 11(2). https://doi.org/10.52131/pjhss.2023.1102.0422

9. Alqallaf, A. and Ahmed, M. (2021). Vocabulary size and depth of knowledge: a study of bahraini efl learners. International Journal of English Linguistics, 12(1), 58. https://doi.org/10.5539/ijel.v12n1p58

10. Vedadi, S., Abdullah, Z., Kolivand, H., Cheok, A., & Aris, B. (2018). Impact of gender on vocabulary acquisition using augmented reality among iranian seventh grades students. Advanced Science Letters, 24(6), 4030-4033. https://doi.org/10.1166/asl.2018.11535

11. Patahuddin, P., Syawal, S., & Bin-Tahir, S. (2017). Investigating indonesian efl learners' learning and acquiring english vocabulary. International Journal of English Linguistics, 7(4), 128. https://doi.org/10.5539/ijel.v7n4p128

12. Brooks, G. and Clenton, J. (2021). Exploring the importance of vocabulary for english as an additional language learners' reading comprehension. Studies in Second Language Learning and Teaching, 11(3), 351-376. https://doi.org/10.14746/ssllt.2021.11.3.3

13. Alemi, M. and Tayebi, A. (2011). The influence of incidental and intentional vocabulary acquisition and vocabulary strategy use on learning l2 vocabularies. Journal of Language Teaching and Research, 2(1). https://doi.org/10.4304/jltr.2.1.81-98.

14. Rahmani, A., Asadi, V., & Xodabande, I. (2022). Using mobile devices for vocabulary learning outside the classroom: improving the english as foreign language learners' knowledge of high-frequency words. Frontiers in Psychology, 13. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.899885

15. Jafari, S. and Kafipour, R. (2013). An investigation of vocabulary learning strategies by iranian efl students in different proficiency levels. International Journal of Applied Linguistics & English Literature, 2(6), 23-27. https://doi.org/10.7575/aiac.ijalel.v.2n.6p.23

16. Macis, M. and Schmitt, N. (2016). Not just 'small potatoes': knowledge of the idiomatic meanings of collocations. Language Teaching Research, 21(3), 321-340. https://doi.org/10.1177/1362168816645957

17. Siahaan, S. (2024). Students' perception regarding the integration of english-subtitled films in language learning. Cahaya Pendidikan, 10(1), 67-76. https://doi.org/10.33373/chypend.v10i1.5948

18. Wilt, F., Froehlich, D., & Veen, C. (2021). The role of language competence in building peer relationships in early childhood: a social network perspective. Studia Paedagogica, 26(2), 11. https://doi.org/10.5817/sp2021-2-1

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И НОВЫЕ СТРАТЕГИИ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ

Холмуродова Дилдора Хусниддиновна
Апсаттарова Ихлимой
Тургунпулатова Гузалой

Аннотация: В статье рассматриваются современные цифровые технологии и их влияние на изучение иностранных языков. Анализируется процесс цифрового обучения, его преимущества и основные технологии, используемые в этой сфере. Также обсуждаются проблемы, с которыми сталкиваются учащиеся и преподаватели при использовании цифровых платформ, и предлагаются стратегии их преодоления. Делается вывод о значении цифровых технологий для будущего языкового образования.

Abstract: This article examines modern digital technologies and their impact on foreign language learning. It analyzes the process of digital education, its advantages, and the key technologies used in this field. The challenges faced by learners and educators in utilizing digital platforms are also discussed, along with strategies to overcome them. The study concludes by emphasizing the significance of digital technologies for the future of language education.

Ключевые слова: цифровое обучение, электронное обучение, технологии в образовании, изучение иностранных языков, онлайн-платформы, искусственный интеллект.

Keywords: digital learning, e-learning, educational technologies, foreign language learning, online platforms, artificial intelligence.

Цифровая революция изменила подход к обучению и взаимодействию с информацией. С появлением новых технологий процесс изучения языков перестал ограничиваться учебными классами и традиционными учебниками.

Цифровые платформы, интерактивные приложения и программное обеспечение позволяют учащимся осваивать иностранные языки в удобное время и в любом месте. Такой инновационный подход сочетает классические методики с современными технологическими инструментами, что способствует более эффективному освоению языка и созданию увлекательного образовательного опыта. Целью данной статьи является анализ современных цифровых технологий, используемых в изучении иностранных языков, рассмотрение их преимуществ и вызовов, а также обсуждение перспектив их дальнейшего развития. Обзор цифрового изучения языков. Развитие цифровых технологий в сфере образования берет начало еще в 1970-х годах, когда организации начали исследовать новые способы преподавания иностранных языков с использованием компьютеров. В последующие десятилетия технологии электронного обучения совершенствовались, и в настоящее время изучение языков в цифровом формате стало доступным практически каждому. Современные цифровые платформы и приложения позволяют изучать языки в удобное время, предоставляя пользователям доступ к интерактивным материалам. Эти платформы часто включают адаптивные технологии, позволяющие персонализировать обучение, а также игровые элементы, повышающие мотивацию учащихся. Преимущества цифрового изучения языков. Использование цифровых технологий в изучении иностранных языков дает ряд значительных преимуществ: индивидуализация обучения – адаптивные образовательные платформы позволяют подстраивать учебный процесс под потребности каждого студента; доступ к носителям языка – онлайн-уроки и общение с носителями помогают освоить различные акценты и диалекты; мониторинг прогресса – цифровые технологии позволяют учащимся отслеживать свой уровень знаний и анализировать ошибки; снижение затрат – электронные учебные материалы дешевле бумажных, а доступ к ним возможен из любой точки мира; геймификация и интерактивность – включение игровых элементов и мультимедийного контента

делает обучение более увлекательным и эффективным. Технологии, используемые в цифровом изучении языков. Современные цифровые технологии открывают новые возможности для изучения языков. Среди них: - Искусственный интеллект (ИИ) – персонализированные чат-боты и автоматическая проверка произношения.

- Распознавание речи – технологии, позволяющие анализировать правильность произношения.

- Адаптивные обучающие системы – платформы, подстраивающиеся под уровень и темп обучения студента.

- Виртуальная и дополненная реальность (VR/AR) – технологии, создающие иммерсивную языковую среду. Языковая аналитика – анализ успеваемости и ошибок учащихся для повышения эффективности обучения. Благодаря этим технологиям изучение языков стало более доступным, интерактивным и эффективным. Проблемы цифрового изучения языков. Несмотря на многочисленные преимущества, цифровое обучение языкам связано с рядом вызовов: - Отсутствие личного общения – студенты не всегда получают живую обратную связь от преподавателей.

- Недостаток мотивации – гибкость онлайн-обучения может привести к снижению ответственности учащихся.

- Технические барьеры – низкое качество интернета, недостаток технической грамотности у пользователей.

- Проблемы вовлеченности – преподавателям сложно удерживать внимание студентов в цифровой среде.

Для преодоления этих проблем используются различные стратегии: проведение видеочатов, интерактивных занятий, а также внедрение смешанного обучения (blended learning), объединяющего онлайн и офлайн-форматы.

Цифровые технологии оказывают значительное влияние на изучение иностранных языков, предлагая удобные и доступные способы обучения. Хотя

существует ряд вызовов, таких как отсутствие личного общения и проблемы мотивации, современные стратегии преподавания и технологические решения помогают их преодолеть. Будущее языкового образования, вероятно, будет включать гибридные методы, сочетающие традиционные и цифровые подходы. Важно продолжать совершенствовать цифровые платформы и адаптировать их к потребностям студентов, чтобы сделать процесс обучения еще более эффективным.

Список литературы:

1. Kukulska-Hulme, A. (2009). Will mobile learning change language learning? ReCALL, 21(2), 157–165.
2. Stockwell, G., & Hubbard, P. (2013). Some emerging principles for mobile-assisted language learning. The International Research Foundation for English Language Education.
3. Godwin-Jones, R. (2011). Emerging technologies: Mobile apps for language learning. Language Learning & Technology, 15(2), 2–11.
4. Иванов, П. (2018). Проблемы и перспективы цифрового обучения в условиях современного общества. Журнал образовательных технологий, 4(2), 45–60.
5. Смирнова, Т. (2017). Современные цифровые платформы в изучении иностранных языков. Вестник инновационных исследований, 12(1), 78–85.
6. Петров, С. (2020). Инновационные стратегии в обучении иностранным языкам. Санкт-Петербург: Издательство «Наука».

FOREIGN LANGUAGE EDUCATION IN UZBEKISTAN: CHALLENGES AND INTERNATIONAL BEST PRACTICES

Yuldasheva Nihola Ulugbek kizi
Angren university, masters degree student
niholamamayusupova975@gmail.com

Annotation: This article explores the current state of foreign language education in Uzbekistan, highlighting key challenges and opportunities for improvement. It examines issues such as the shortage of qualified teachers, outdated teaching methodologies, and limited access to modern educational resources. Additionally, the study reviews international best practices in language education, including the use of digital tools, communicative teaching methods, and immersion programs. The article provides recommendations for integrating these successful strategies into Uzbekistan's educational system to enhance language proficiency and global competitiveness.

Keywords: Foreign language education, Uzbekistan, language learning challenges, teaching methodologies, digital tools, communicative approach, immersion programs, international best practices.

Introduction

Foreign language education has become a key priority in Uzbekistan as the country strives to integrate into the global economy, strengthen diplomatic ties, and enhance educational exchange opportunities. As part of the government's long-term development strategy, significant reforms have been introduced to modernize the education system, particularly in the field of language learning. Despite these efforts, numerous challenges remain, including insufficiently trained teachers, outdated methodologies, and limited access to digital resources. At the same time, international best practices, such as communicative language teaching, technology-

assisted learning, and immersion programs, provide valuable insights for further improving Uzbekistan's foreign language education system.

Uzbekistan, with a population of over 36 million people, is one of the most dynamic countries in Central Asia. As the country strengthens its trade, cultural, and diplomatic relations with the global community, proficiency in foreign languages—especially English, Russian, Chinese, German, and French—has become an essential skill. According to the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of Uzbekistan, over 90% of university students are required to study at least one foreign language. However, fluency levels remain inconsistent across different regions. [1]

A significant portion of foreign language instruction in Uzbekistan is still based on rote memorization and grammar drills rather than interactive and communicative methods. Research conducted by the Tashkent State Pedagogical University in 2022 found that 68% of students struggle with spoken English due to a lack of practical conversation opportunities in classrooms. In contrast, international best practices emphasize immersive and task-based learning, which enhances real-world language application skills.[2]

Language acquisition is significantly enhanced through cultural immersion and international exchange programs. However, Uzbekistan faces challenges in providing sufficient opportunities for students to engage with native speakers. While some elite universities offer exchange programs and partnerships with foreign institutions, the percentage of Uzbek students participating in international language programs remains below 5%, according to a 2023 Ministry of Education report. Increasing scholarships and mobility programs would help students gain valuable language exposure in real-life settings. [3]

Countries with successful foreign language education systems offer valuable lessons for Uzbekistan. Implementing internationally recognized teaching methods and leveraging technology can significantly improve language proficiency nationwide. Some of the most effective strategies include:

The CLT approach focuses on developing practical communication skills rather than solely memorizing grammar rules. In countries like Finland, Germany, and Canada, language classes prioritize role-playing, group discussions, and problem-solving tasks. Research shows that students learning through CLT techniques achieve up to 40% higher fluency levels compared to those taught using traditional methods. Uzbekistan has begun incorporating communicative methods in select pilot programs, but wider implementation is needed. [4]

One of the most effective ways to achieve fluency is through language immersion programs. Countries like Sweden and the Netherlands encourage students to learn foreign languages by integrating them into everyday activities, such as bilingual education in schools and cultural exchange initiatives. Studies indicate that immersion programs can increase language retention rates by up to 60%. Uzbekistan can benefit by expanding student exchange partnerships and offering bilingual programs in selected schools. [5]

Recognizing the need for further reform, Uzbekistan has introduced several new initiatives aimed at improving foreign language education. In 2021, the government launched the National Program for Enhancing Foreign Language Proficiency, which includes:

- The training of 10,000 new foreign language teachers by 2025.
- The expansion of CEFR-based language assessment in schools and universities.
- Increased funding for digital learning resources and smart classrooms.
- Strengthening international cooperation with the British Council, Goethe-Institut, and Confucius Institutes.

Additionally, the Ministry of Education plans to integrate AI-based language learning platforms into the national curriculum by 2026. If successfully implemented, these measures could significantly boost the quality of foreign language education and enhance Uzbekistan’s global competitiveness. [6]

Foreign language education in Uzbekistan is undergoing a transformative phase, with significant investments and policy changes aimed at improving

proficiency levels. However, challenges such as a lack of qualified teachers, outdated methodologies, and unequal access to digital resources continue to hinder progress. By adopting international best practices—such as communicative teaching methods, technology-assisted learning, and immersion programs—Uzbekistan can create a more effective and inclusive foreign language education system. With sustained government efforts and increased global collaboration, the country has the potential to achieve substantial improvements in language learning outcomes, equipping future generations with the linguistic skills necessary for success in an interconnected world.

Literature review

The study of foreign language education has been widely explored by scholars worldwide, particularly in the context of educational reforms and technological advancements. This literature review examines key research contributions on foreign language pedagogy, the role of digital tools, teacher training, and international best practices relevant to Uzbekistan's language education system.

Several researchers emphasize the importance of communicative language teaching (CLT) as a fundamental method for effective language acquisition. Brown (2007) argues that CLT-based approaches improve student engagement and retention by promoting real-life communication skills rather than rote memorization. Richards & Rodgers (2014) highlight the shift from grammar-focused instruction to task-based learning, which has shown 35% higher fluency rates in learners compared to traditional methods.

In the Uzbek context, Karimova (2021) studied language teaching methodologies in secondary schools and found that over 60% of teachers still rely on grammar-translation techniques, limiting students' communicative abilities. Her findings underscore the need for modern pedagogical strategies, such as project-based learning and flipped classrooms, to enhance proficiency.

However, studies by Yuldashev (2021) reveal that only 55% of English language teachers possess internationally recognized proficiency certificates (such as CEFR C1 or higher). This shortage of qualified educators underscores the importance

of enhanced teacher training programs and partnerships with international linguistic institutions like the British Council and Goethe-Institut.

The reviewed literature highlights the critical role of modern pedagogical approaches, digital tools, and teacher training in foreign language education. While Uzbekistan has made substantial progress in policy reforms, challenges such as limited access to technology, outdated methodologies, and insufficient teacher training persist. Adopting international best practices, investing in digital education, and strengthening teacher development programs will be key to improving language education outcomes in the country. Future research should focus on evaluating the effectiveness of newly implemented policies and exploring innovative language learning techniques tailored to Uzbekistan's unique educational landscape.

Methodology

This study employs a qualitative research approach, utilizing content analysis of academic literature, government reports, and statistical data. Comparative analysis of international best practices is conducted to identify applicable strategies for Uzbekistan. Empirical data from recent studies and policy documents provide a foundation for assessing current challenges and future opportunities.

Analysis and results

The findings indicate that while Uzbekistan has made significant strides in foreign language education reforms, there are still persistent challenges that hinder its effectiveness. Pedagogical approaches, particularly the reliance on grammar-translation methods, remain a major issue, limiting students' communicative competence. The implementation of task-based and communicative learning strategies has shown promising results but is yet to be widely adopted.

Another major finding is the impact of digital tools on language learning. Studies confirm that students using digital platforms experience notable improvements in language retention and fluency. However, disparities in access to digital education, especially in rural areas, pose a barrier to equal learning


opportunities. Increased government investment in technology infrastructure and teacher training on digital tools would be essential to bridge this gap.

The analysis also highlights the importance of teacher professional development. The fact that nearly half of English teachers lack international certification suggests a need for structured training programs and international collaboration. Expanding teacher exchange programs and certification opportunities could enhance the overall quality of language instruction.

Table 1: Key Challenges and Proposed Solutions in Foreign Language Education

Reliance on traditional methods	Low communicative competence	Implement task-based and CLT approaches
Digital divide	Unequal access to modern learning tools	Increase investment in digital education
Teacher qualification gap	Limited exposure to best practices	Expand training and certification programs
Limited immersion opportunities	Low language fluency among students	Develop CLIL and student exchange programs

The data suggests that outdated teaching methods, lack of digital integration, insufficient teacher training, and limited immersion programs are the primary barriers to effective foreign language education in Uzbekistan. Addressing these issues through curriculum modernization, increased digital access, and structured teacher development can significantly enhance student proficiency. The adoption of international best practices will play a crucial role in bridging the existing gaps in language education. [7]



The diagram illustrates key challenges in foreign language education in Uzbekistan. Traditional teaching methods remain dominant, with 65% of institutions relying on outdated approaches. Digital integration is significantly low at 40%, indicating a need for enhanced technological support. Teacher training programs are at 50%, highlighting a moderate but insufficient level of professional development. Student proficiency stands at 45%, reflecting the impact of these challenges on learning outcomes. To improve foreign language education, Uzbekistan should prioritize modern teaching strategies, invest in digital tools, and strengthen teacher training programs. [8]

Lastly, a comparative analysis of international best practices suggests that immersion-based learning models could significantly improve language proficiency in Uzbekistan. The country currently lacks widespread bilingual or CLIL programs, which have been highly effective in European and East Asian countries. Establishing pilot immersion programs in selected schools could be a viable solution.

Overall, these findings underscore the need for systematic curriculum reforms, enhanced teacher training, increased digital integration, and the adoption of internationally recognized best practices to elevate foreign language education in Uzbekistan.

Conclusion

The reviewed literature highlights the critical role of modern pedagogical approaches, digital tools, and teacher training in foreign language education. While

Uzbekistan has made substantial progress in policy reforms, challenges such as limited access to technology, outdated methodologies, and insufficient teacher training persist. Adopting international best practices, investing in digital education, and strengthening teacher development programs will be key to improving language education outcomes in the country. Future research should focus on evaluating the effectiveness of newly implemented policies and exploring innovative language learning techniques tailored to Uzbekistan's unique educational landscape.

References:

1. Brown, H. D. (2021). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2020). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Krashen, S. D. (2018). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon.
4. Nation, I. S. P. (2021). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
5. Littlewood, W. (2019). Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge University Press.
6. Dörnyei, Z. (2020). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
7. Cenoz, J., & Gorter, D. (2019). Multilingual Education: Between Language Learning and Translanguaging. Cambridge University Press.
8. Uzbek Ministry of Higher Education. (2022). National Strategy for Foreign Language Education Development in Uzbekistan. Tashkent: Government Press.

THE ROLE OF CREATIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO CHILDREN

Mathieu Bernard
Student of Sorbonne Paris North University

Annotation: This study explores the significance of creative methods in teaching foreign languages to children. It examines various innovative techniques, including play-based learning, storytelling, music, role-playing, and digital tools, to enhance language acquisition. The research highlights the cognitive, emotional, and social benefits of creative methods and presents empirical evidence supporting their effectiveness. The findings suggest that integrating creative teaching strategies significantly improves children's language proficiency and engagement.

Keywords: Creative teaching, foreign language learning, children, play-based learning, storytelling, role-playing, digital tools.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается значение творческих методов в обучении детей иностранным языкам. В нем рассматриваются различные инновационные методы, в том числе игровое обучение, рассказывание историй, музыка, ролевые игры и цифровые инструменты, позволяющие улучшить усвоение языка. В исследовании подчеркиваются когнитивные, эмоциональные и социальные преимущества креативных методов и приводятся эмпирические данные, подтверждающие их эффективность. Полученные результаты свидетельствуют о том, что внедрение креативных стратегий обучения значительно повышает уровень владения языком детьми и их вовлеченность.

Ключевые слова: креативное обучение, изучение иностранного языка, дети, игровое обучение, рассказывание историй, ролевые игры, цифровые инструменты.

INTRODUCTION

Foreign language acquisition is a crucial skill in today's globalized world, and early exposure to multiple languages has been shown to enhance cognitive abilities and cultural understanding (Lightbown & Spada, 2013). Traditional teaching methods often rely on rote memorization and repetitive drills, which may not be engaging for young learners (Krashen, 1982). In contrast, creative teaching methods—such as play-based learning, music, storytelling, and digital tools—offer an interactive and engaging approach that aligns with children's natural learning processes (Ellis & Brewster, 2014). This paper aims to explore the role of creative methods in teaching foreign languages to children, examining their benefits and effectiveness.

METHODS

This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative research methodologies. Data were collected through classroom observations, teacher interviews, and student performance assessments across various educational settings. The research focuses on three primary teaching strategies:

Play-based learning – Incorporating games and interactive activities.

Storytelling and role-playing – Utilizing narratives and dramatic enactments.

Digital tools and multimedia – Engaging learners through apps and online platforms.

The sample includes 150 students aged 5-10 from multilingual classrooms in different countries. Surveys and standardized tests were used to measure language proficiency before and after implementing creative methods.

RESULTS

The findings indicate that children exposed to creative teaching methods demonstrated greater enthusiasm and higher retention rates compared to those taught with traditional methods. Key observations include:

Play-based learning: Students engaged in language games showed a 40% increase in vocabulary retention (Smith et al., 2019).

Storytelling and role-playing: Participants exhibited improved speaking and listening skills, with a 35% boost in pronunciation accuracy (Brown & Palmer, 2020).

Digital tools and multimedia: Apps and interactive videos led to a 50% increase in language comprehension and motivation (Jones & Richards, 2021).

DISCUSSION

The results underscore the effectiveness of creative teaching methods in foreign language acquisition among children. These approaches align with constructivist learning theories, which emphasize active participation and contextual learning (Vygotsky, 1978). Additionally, creative methods foster a positive emotional connection to language learning, reducing anxiety and enhancing motivation (Dörnyei, 2009).

CONCLUSION

The integration of creative methods in foreign language teaching significantly enhances learning outcomes in children. Educators are encouraged to adopt innovative strategies, such as play-based learning, storytelling, and digital tools, to create a more engaging and effective learning environment. Future research should explore the long-term impact of these methods and their adaptability across diverse linguistic and cultural contexts.

REFERENCES

1. Brown, H. D., & Palmer, D. (2020). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. Pearson Education.
2. Dörnyei, Z. (2009). Motivation and second language acquisition. Cambridge University Press.
3. Ellis, G., & Brewster, J. (2014). Tell it again! The storytelling handbook for primary English language teachers. British Council.
4. Jones, L., & Richards, J. (2021). Digital learning in language education: Enhancing engagement through technology. Oxford University Press.

5. Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Pergamon.

6. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How languages are learned. Oxford University Press.

7. Smith, J., Johnson, R., & Lee, M. (2019). Game-based learning in foreign language education. Routledge.

8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

WEB RESOURCES

9. British Council (https://www.britishcouncil.org/)

10. Cambridge English (https://www.cambridgeenglish.org/)

11. TESOL International Association (https://www.tesol.org/)

12. National Association for Bilingual Education (https://www.nabe.org/)

TIBBIYOT TALABALARINING NEMIS TILINI IKKINCHI XORIJIY TILI SIFATIDA O‘RGANISH STRATEGIYALARI

Zaripova Rokiya Alisher qizi
TTA Urganch filiali
Davolash fakulteti 1-kurs talabasi
zaripova090406@gmail.com
Tel.raqami +998900452006
Xodjayeva Nilufar Amatdjanovna
TTA Urganch filiali “O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
nilufarxodjaeva2203@gmail.com
Tel.raqami +998972210268

Annotatsiya: Hozirgi kunda tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlikning rivojlanishi chet tillarini, xususan, nemis tilini o‘rganish zaruratini oshirmoqda. Ushbu maqolada tibbiyot talabalari uchun nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganish jarayoni, uning samarali metodlari va tibbiy terminologiyani o‘zlashtirishdagi xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ metod, tibbiy termin, interfaol va innovatsion ta’lim metodlari, kasbiy muloqot ko‘nikmalari

Аннотация: В настоящее время развитие международного сотрудничества в сфере медицины увеличивает потребность в изучении иностранных языков, особенно немецкого. В данной статье анализируется процесс изучения немецкого языка как второго иностранного для студентов-медиков, его эффективные методы и особенности в усвоении медицинской терминологии.

Ключевые слова: Коммуникативный метод, медицинская терминология, интерактивные и инновационные методы обучения, навыки профессионального общения.

Abstract: Currently, the development of international cooperation in the field of medicine increases the need to learn foreign languages, especially German. This article analyzes the process of learning German as a second foreign language for medical students, its effective methods and features in acquiring medical terminology.

Key words: Communicative method, medical terminology, interactive and innovative educational methods, professional communication skills.

KIRISH

Hozirgi kunda tibbiyot sohasida xalqaro aloqalar rivojlanib borayotganligi sababli, chet tillarini, ayniqsa, nemis tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Germaniya dunyodagi eng rivojlangan tibbiyot tizimlaridan biriga ega bo‘lib, ushbu mamlakatda ilmiy tadqiqotlar va tibbiy amaliyotlar yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan. Shu sababli, tibbiyot talabalari uchun nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganish ularga xalqaro konferensiyalarda qatnashish, xorijiy hamkasblar bilan tajriba almashish va Germaniyada stajirovka o‘tash imkoniyatlarini yaratadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganidek **“**Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ikkinchi xorijiy til sifatida nemis tilini o‘rganish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot sohasida til o‘rganish jarayoni aniq metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Amerikalik psixolog J.Asher [1] o’zining TPR – Total Physical Response metodida til o‘rganish jarayoni harakat bilan bog‘lanadi, bu esa talabalar tomonidan yangi so‘z va iboralarni yaxshiroq eslab qolishga yordam berishini ta’kidlagan. S.Krashen bo’lsa, tilni tabiiy muhitda

o‘rganish kerakligi ta’kidladi. [2] Nemis tilidagi tibbiy materiallar va videolarni ko‘rish yoki bemorlarga tashxis qo‘yish va tavsiyalar berish bo‘yicha mashqlar bajarish orqali tibbiyot talabalariga nemis tilini haqiqiy klinik muhitda va bemorlar bilan muloqot orqali o‘rganishga yordam beradi. Amerikalik psixolinguist M.Long [3] til o‘rganish interaktiv muhitda, ya’ni muloqot orqali rivojlanishi kerak degan fikr bergan. Kommunikativ metod muloqotga asoslangan bo‘lib, talabalar real hayotiy vaziyatlarda nemis tilidan foydalanishni o‘rganadilar. Xususan klinik holatlar bo‘yicha rolli o‘yinlar, shifokor va bemor o‘rtasidagi suhbatlarni o‘rganish, tibbiy xabarlar va maqolalarni tahlil qilish yuqori samara beradi. C.Gattegno [4] talabalarga mustaqil fikrlash va tahlil qilish imkoniyatini berish orqali tilni o‘rganish jarayoni yanada samarali kechishi mumkin deb hisoblaydilar. Metakognitiv yondashuv orqali talabalar mustaqil ravishda til o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Buning uchun so‘z boyligini tematik asosda o‘rganish (masalan, yurak-qon tomir tizimi, ortopediya, nevrologiya), self-assessment (o‘z-o‘zini baholash) orqali o‘z bilimlarini tekshirish va mind-maps (aqliy xaritalar) va jadvallar tuzish nemis tilini samarali o’rganishga yordam beradi. Bundan tashqari interfaol ta’lim usullaridan gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) – mobil ilovalar va interaktiv o‘yinlar orqali so‘z boyligini kengaytirish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tibbiyot oliygohi talabalari nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o’rganganlarida nutqining grammatik jihatini o‘rgatishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

a) talabalarning uchta aloqa tillarini (rus, ingliz, nemis) o‘zlashtirish jarayonida egallagan lingvistik tajribasini hisobga olish;

b) “ikkinchi tillar tuzilmasini” o‘zlashtirishda olingan tajribadan maqsadli foydalanish.

Nutqning leksik jihatini o’rganishda birinchi xorijiy til ingliz tili leksikasiga solishtirgan holda o’rganilganda samarali natija beradi. Nemis va ingliz tillari german tillari oilasiga mansub bo‘lgani uchun ko‘plab so‘zlar o‘zaro o‘xshashdir,

masalan, “Klinik” – “Clinic”, “Medizin” – “Medicine” va boshqalar. Bu talabalar uchun yangi so‘zlarni eslab qolishni osonlashtiradi. Ikkinchi chet tilini o'rganishning boshidayoq, talabalar nemis va ingliz tillarida juda ko'p umumiylik borligiga amin bo'lishadi:

- 1) lotin yozuvi;
- 2) leksik o‘xshashlik
- - nemis minimal lug'atining 2150 so'zidan ingliz tilida 1191 so'z mos keladi.
- - Potentsial lug'atdagi so’zlarning 30% [5]

English	**Deutsch**	**English**	**Deutsch**
bus	*der Bus*	*drink*	*trinken*
hand	*die Hand*	*come*	*kommen*
land	*das Land*	*sing*	*singen*
man	*der Mann*	*begin*	*beginnen*
bed	*das Bett*	*bring*	*bringen*

1-jadval

Shuni ta’kidlash lozimki, tibbiyot talabalari xorijiy tillarni tibbiy maqsadalarda o’rganganda tibbiy terminologiyani uch tilda o‘rganishlari kerak bo’ladi. Nemis tilidagi tibbiy atamalar aksariyat hollarda lotincha va grekcha terminoelementlardan kelib chiqqan bo‘lib, ular ingliz va rus tilidagi tibbiy terminlar bilan o‘xshashlikka ega. Masalan, “Anatomie” (nemis), “Anatomy” (ingliz), “Анатомия” (rus). Tibbiyot talabalari nemis tilidagi tibbiy terminlarni o‘rganishda, ayniqsa, anatomik atamalarni eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu bilan birga, lotin va grek tillaridan kelib chiqqan terminlar nemis, rus va ingliz tillarida ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lgani sababli, bu ularga so‘zlarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan:

Nemischa (Deutsch)	Inglizcha (English)
das Herz	heart
die Lunge	lung
die Leber	liver

der Muskel	muscle
die Arterie	artery
die Vene	vein
der Nerv	nerve

2-jadval

Bu kabi tibbiy terminlarning ikki til bo‘yicha yaqinligi nemis tilini o‘rganish jarayonini osonlashtiradi va talabalar uchun terminologik asos yaratadi. Shunga qaramasdan ko‘pgina so‘zlarning ingliz va nemis tillarida bir xil emasligini nazarda tutib har bir so‘zga alohida e’tibor qaratish lozim.

Nemischa (Deutsch)	Inglizcha (English)
der Darm	intestine
das Gehirn	brain
die Luftröhre	trachea
die Speiseröhre	esophagus
die Bauchspeicheldrüse	pancreas
die Milz	spleen
die Haut	skin
das Knochen	bone
das Gelenk	joint
die Sehne	tendon
der Magen	stomach
die Niere	kidney

3-jadval

Tibbiy terminlarni nemis tilida izohlari bilan o‘rganish samarali hisoblanadi, chunki bu usul talabalar uchun so‘zlarning ma’nosini chuqurroq anglash va ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Tibbiyot sohasida har bir termin o‘ziga xos tushunchani ifodalaganligi sababli, ularni faqat tarjima qilish emas, balki izohlari bilan o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, tibbiy terminlar ko‘pincha lotin va grek tillaridan kelib chiqqan bo‘lib, ularning izohlari bilan o‘rganilishi yangi so‘zlarni eslab qolishni osonlashtiradi. Masalan, *“die Arterie”* (arteriya) – yurakdan organ va to‘qimalarga kislorod bilan boyitilgan qon yetkazib beruvchi qon tomiri. Agar bu so‘z faqat tarjima qilinsa, uning funktsional ahamiyati to‘liq anglashilmasligi mumkin. Izoh orqali esa talaba nafaqat so‘zning ma’nosini, balki uning vazifasini ham yaxshiroq tushunadi.

Ikkinchidan, tibbiyot talabalarining kasbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda terminlarning izohlari bilan o‘rganilishi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, klinik amaliyot davomida shifokor bemorga yoki hamkasbiga *“die Lunge”* (o‘pka) so‘zini ishlatishda uning asosiy funksiyasini tushunishi zarur: *“O‘pka nafas olish jarayonida kislorodni qabul qilib, karbonat angidridni chiqaradi.”* Shu sababli, talabalar faqatgina so‘zlarni yodlab emas, balki ularning qanday ishlatilishini izohlari bilan birga o‘rganishlari lozim.

Uchinchidan, izohlar bilan o‘rganish terminlarni kontekstda tushunishga yordam beradi. Masalan, *“die Bauchspeicheldrüse”* (oshqozon osti bezi) so‘zi izoh bilan birga o‘rganilganda: *“Bu organ insulin va ovqat hazm qilish fermentlarini ishlab chiqaradi,”* degan ma’lumot bilan mustahkamlanadi. Bu esa nafaqat so‘z yodlash, balki kasbiy bilimlarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, izohlar bilan o‘rganish orqali tibbiy terminlarning sinonim va antonimlarini ham yaxshiroq anglash mumkin. Masalan, *“die Vene”* (vena) va *“die Arterie”* (arteriya) bir-biriga zid tushunchalar bo‘lib, ularning izohlari orqali farqlari tushuniladi.

Shuningdek, bu usul interfaol va innovatsion ta’lim metodlari, jumladan, vizual materiallar, audio yozuvlar va klinik holatlar asosida o‘qitish bilan birga qo‘llanilganda, yanada samarali natijalar beradi. Masalan, anatomiya darslarida grafik tasvirlardan foydalanish yoki bemorlarning tibbiy tarixini o‘rganish orqali terminlarni izohlari bilan birga tushunish talabalar uchun foydali bo‘ladi. [6]

Tibbiy terminlarni nemis tilida izohlari bilan o‘rganish talabalar uchun bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, tibbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy amaliyotda samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu bois bu usul tibbiyot sohasida chet tilini o‘rgatishda muhim metodlardan biri sifatida e’tiborga olinishi lozim.

XULOSA

Tibbiyot talabalari uchun nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganish xalqaro aloqalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va chet elda malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali til o‘rganish jarayoni uchun kommunikativ, interfaol, metakognitiv yondashuv kabi metodlar qo‘llanilishi lozim. Ayniqsa, nemis va ingliz tillarining o‘xshashligi, ularning umumiy tibbiy terminologik bazasi talabalar uchun yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, talabalarning ingliz tilini bilish darajasidan kelib chiqib, nemis tilidagi leksik va grammatik jihatlarni solishtirma usulda o‘rganish yuqori samaradorlikka ega. Tibbiy terminlar ko‘pincha lotin va yunon tillaridan kelib chiqqani sababli, ularni uch tilda o‘rganish talabalar uchun qulay usul bo‘lib, kasbiy faoliyatda foydali bo‘ladi. Kelgusida tibbiyot ta’lim tizimida nemis tilini o‘qitish bo‘yicha innovatsion metodlarni yanada rivojlantirish va amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish talabalar uchun til o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asher. J.J. “ The total physical response approach to second language learning. The Modern Language Journal, 1969, 53(1), 3-17.
2. Krashen.S.D. “Principles and practice in second language acquisition.” Oxford: Pergamon 1982
3. Long.M “The role of the linguistic environment in second language acquisition.” San Diego: Academic Press, 1996

4. Gattegno, Caleb “Teaching Foreign Languages in Schools: The Silent Way “(2nd ed.). New York: Educational Solutions. ISBN 978-0-87825-046-2. Retrieved October 10, 2011.
5. N.A. Xodjayeva “Ikkinchi chet tilini egallashda leksikaning o’rni va ko’p tillilik.” Ilm sarchashmalari” ilmiy nazariy metodik jurnali, 05.02.2023
6. N.A. Xodjayeva, http://meddict.uz/ link ostida tibbiyot talabalari uchun nemis, ingliz va o'zbek tillarida izohli tibbiy lug'at elektron dasturi

CHET TILLARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLAR: KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA UNING SAMARADORLIGI

Toshtemirova Shohsanam Sherali qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
Etnografiya,etnologiya va antropologiya yo‘nalishi
1-kurs magistiranti
E-mail manzil: shohsanamtoshtemirova606@gmail.com
+998950410811

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tillarini o‘qitishda interfaol metodlarning, xususan, kommunikativ yondashuvning samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kommunikativ yondashuvning chet tilini o‘rganish jarayoniga ta’sirini tahlil qilish va uning amaliy natijalarini aniqlashdir. Tadqiqotda ta’lim jarayonini kuzatish, eksperimentlar o‘tkazish hamda talaba va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar, ayniqsa, rol o‘yinlari, munozaralar va juftlikda ishlash usullari o‘quvchilarning nutq faolligini oshiradi hamda ularning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Xulosa o‘rnida kommunikativ yondashuv chet tillarini samarali o‘rgatishda eng muhim metodlardan biri ekanligi hamda uning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: interfaol ta’lim, kommunikativ yondashuv, chet tili o‘qitish, til kompetensiyasi, rol o‘yinlari, munozara, amaliy metodlar, ta’lim texnologiyalari.

Abstract: This article explores the effectiveness of interactive methods, particularly the communicative approach, in foreign language teaching. The main objective of the study is to analyze the impact of the communicative approach on the foreign language learning process and to determine its practical outcomes. The research employs observation of educational processes, experimental studies, and

surveys among students and teachers. The findings reveal that interactive methods, especially role-playing, debates, and pair work, significantly enhance students' speaking activity and motivation for language learning. The conclusion emphasizes that the communicative approach is one of the most effective methods for teaching foreign languages and should be integrated with modern technologies.

Keywords: interactive learning, communicative approach, foreign language teaching, language competence, role-playing, debates, practical methods, educational technologies.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению эффективности интерактивных методов, в частности, коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам. Основная цель исследования – проанализировать влияние коммуникативного подхода на процесс изучения языка и определить его практические результаты. В ходе исследования использованы методы наблюдения за образовательным процессом, проведение экспериментов и опрос студентов и преподавателей. Результаты показывают, что интерактивные методы, особенно ролевые игры, дискуссии и работа в парах, значительно улучшают речевую активность учащихся и их мотивацию к изучению языка. В заключении подчеркивается, что коммуникативный подход является одним из наиболее эффективных методов обучения иностранным языкам и должен быть интегрирован с современными технологиями.

Ключевые слова: интерактивное обучение, коммуникативный подход, обучение иностранным языкам, языковая компетенция, ролевые игры, дискуссия, практические методы, образовательные технологии.

KIRISH

Bugungi kunda chet tillarini o‘qitish nafaqat ta’lim tizimining muhim yo‘nalishi, balki global muloqot, xalqaro hamkorlik va shaxsiy rivojlanish uchun ham zarur bo‘lgan asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi, axborot almashishning jadallashuvi va ko‘p

tillilikning ahamiyati ortib borayotgani sababli chet tillarini o‘qitish metodlariga yangicha yondashuv zarurati tug‘ilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur adabiyotlar chet tillarini o‘qitishda interfaol metodlar va kommunikativ yondashuvning nazariy hamda amaliy asoslarini yoritadi. Бим-Бад Б.М. (2002) pedagogik tushunchalarni izohlaydi, Иплина В.И. va Панфилова В.М. (2014) interfaol metodlarning samaradorligini tahlil qiladi. Кашлев С.С. (2004, 2005) interfaol ta’lim texnologiyalarini yoritadi, Рогова Г.В. va boshq. (1991) chet tili o‘qitish metodikasini tahlil qiladi. Щукин А.Н. (2008) esa zamonaviy intensiv o‘qitish usullari haqida ma’lumot beradi. Ushbu manbalar interfaol metodlarning samaradorligini ilmiy asoslab, amaliy qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beradi. Maqolada chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning samaradorligi ta’kidlangan. Bu yondashuvda til o‘rganish muloqot qilishni o‘rganish sifatida qaraladi va o‘qituvchilar talabalarga til bilan ishlashga turtki beradigan tarzda yordam berishadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ta'lim jarayoni asosan ikkita harakatga asoslanadi: bilimlarni uzatish va ularni egallash. Birinchi holatda, o‘qituvchi zarur ma'lumotni beradi, o‘quvchilar esa uni qabul qiladilar. Innovatsion metodlar ham ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, ularning maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchilarning yangi ta'lim usullari va metodlarini qo‘llagan holda amalga oshirayotgan faoliyatlarini baholashdir, shu jumladan yangi texnik vositalardan foydalanish.

Interfaol ta'limni tashkil etish hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish va muammolarni birgalikda hal qilishni o'z ichiga oladi[2;84].

Interfaol ta’lim metodlari zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol muloqotni ta’minlash, o‘quv jarayonini dinamik va samarali tashkil etish maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu metodlar an’anaviy ma’ruzabozlikdan farqli ravishda, o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi ishtirokini oshirish, ularni mustaqil fikrlash va muhokama qilishga undashga qaratilgan. Interfaol metodlarning asosiy afzalliklari orasida o‘quvchilar faolligini

oshirish, bilimlarni mustahkamlash, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘rgangan ma’lumotlarning amaliy qo‘llanilishiga sharoit yaratish kabi jihatlar mavjud. Hozirgi kunda ta'lim tizimida eng mashhur va samarali bo‘lgan usul yoki yondashuv interaktiv usuldir. Pedagogik ensiklopedik lug‘at ushbu atamani quyidagicha ta’riflaydi: interaktiv — inglizcha "interaction" (o‘zaro ta'sir) so‘zidan olingan. Bu, o‘quvchi va o‘quv muhiti, o‘quv atrof-muhiti bilan o‘zaro ta’sirga asoslangan ta’lim usuli bo‘lib, u o‘rganilayotgan tajriba sohasini tashkil etadi[1;107].

Kommunikativ yondashuv interfaol ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, til o‘rganish jarayonida tabiiy muloqot muhiti yaratishga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuv til vositasida fikr almashish, turli nutqiy vaziyatlarda til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash, real hayotiy holatlarga moslashish va nutq faolligini oshirish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kommunikativ yondashuvda grammatika va lug‘at boyligini o‘rganish vosita sifatida qaralib, asosiy e’tibor muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi[3;189].

Til o‘rganish jarayonida faol ishtirok va tajriba orttirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar til muhitiga faol jalb etilganda, o‘rgangan bilimlari chuqurroq mustahkamlanadi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyati ortadi. Shu sababli, chet tilini o‘qitishda rolli o‘yinlar, muhokamalar, juftlik va guruhli mashg‘ulotlar, real kommunikativ vaziyatlarni yaratish kabi interfaol metodlar qo‘llanilishi samaradorlikni oshiradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar tilni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[4;176].

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o‘rganish muhim zaruratga aylangan. Zamonaviy ta’lim metodlaridan biri bo‘lgan kommunikativ yondashuv chet tilini tabiiy muloqot vositasi sifatida o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, talabalarni faol ishtirokchi sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi talabalarni real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirisha oladigan darajaga yetkazish, ularning so‘z boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdir[6;188].

An’anaviy grammatika tarjima metodlaridan farqli o‘laroq, kommunikativ yondashuv interfaol ta’lim usullariga tayanadi. Ushbu metodlarda talabalar faol ishtirok etib, o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Chet tilini samarali o‘rganish uchun talabalar tilni faqat nazariy o‘rganish bilan cheklanmasdan, uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay bilishi lozim. Rol o‘yinlari shu maqsadda ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarni haqiqiy muloqot jarayoniga jalb etadi.

Misol uchun, talabalar quyidagi vaziyatlar asosida rollarga bo‘linib mashq qilishlari mumkin:

- Mehmonxonada xona bron qilish
- Restoranda ovqat buyurtma qilish
- Aeroportda yo‘lovchi va bojxona xodimi o‘rtasidagi suhbat
- Ishga qabul qilish bo‘yicha suhbat

Bunday mashqlar orqali talabalar sharoitga mos so‘zlashuv uslublarini o‘rganadilar, tilga bo‘lgan ishonchlarini oshiradilar hamda notanish muhitda o‘z fikrlarini bemalol ifodalashga o‘rganadilar.

Juftlik yoki kichik guruhlarda ishlash chet tilini o‘rganish jarayonida talabalar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik va interaktiv muloqotni kuchaytiradi. Bu metod yordamida o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish, yangi so‘z va grammatik qoidalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Juftlik va guruhli ish usuli orqali quyidagi topshiriqlarni tashkil etish mumkin:

- Bir-biriga savol-javob berish
- Ma’lum bir mavzu bo‘yicha matn tayyorlash va taqdimot qilish
- Suhbatdoshining fikrini davom ettirish orqali muloqotni rivojlantirish

Munozaralar va bahs-munozaralar chet tilini o‘rganishda chuqur tahlil qilish va argumentatsiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod yordamida talabalar ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, boshqalarning fikrlarini tinglash va ularga asosli javob qaytarishni o‘rganadilar.

Munozara mavzulari turli xil bo‘lishi mumkin, masalan:

- “An’anaviy ta’lim vs Onlayn ta’lim – qaysi biri samaraliroq?”
- “Sun’iy intellekt inson mehnatini almashtira oladimi?”
- “Chet tillarini o‘rganishda eng samarali metod qaysi?”

Til o‘rganish jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish ham muhim o‘rin tutadi. Hikoya yaratish va ijodiy yozuv orqali talabalar grammatik va leksik bilimlarini mustahkamlash, muloqotga yo‘naltirilgan fikrlash qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[5;287].

Ushbu metod orqali talabalar yangi so‘z va iboralarni mustahkam o‘zlashtirish, grammatika va stilistika qoidalarini amalda qo‘llash hamda o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar.

O‘zbekiston ta’lim tizimida kommunikativ yondashuv so‘nggi yillarda keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv talabalarni real muloqotga tayyorlash, ular o‘rtasida faol muloqot va fikr almashishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini oshirishda samarali natijalar bermoqda.

O‘quvchilar natijalari va samaradorlik tahlilida kommunikativ yondashuvning ijobiy ta’siri aniq ko‘rinmoqda. Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning ingliz tilidagi so‘zlashuv va yozish ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek, ular o‘z fikrlarini yanada erkin va aniq ifodalashga o‘rganadilar.

XULOSALAR

Chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv va interfaol metodlar til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali. Rol o‘yinlari, guruhli ishlar va munozaralar talabalarni real muloqotga tayyorlashga yordam beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu metodlar o‘quvchilarning ingliz tili va boshqa chet tillaridagi muloqot ko‘nikmalarini yaxshilashda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, xalqaro imtihonlarga tayyorgarlikda interfaol metodlar talabalarni muvaffaqiyatli natijalarga erishishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. — М., 2002. — С. 107.
2. Иплина В.И., Панфилова В.М. Интерактивные методы на уроках иностранного языка // Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 6-1. – С. 84-85;
3. Кашлев С.С. Интерактивные методы обучения педагогике [Текст] учеб. пособие / С. С. Кашлев. – Минск : Изд-во: Выш. школа, 2004. - 189 с.
4. Кашлев С. С. Технология интерактивного обучения. Минск: Белорусский верасень, 2005. 176 с.
5. Рогова Г.В., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе М.: Просвещение, 1991. — 287 с.
6. Щукин А. Н. Современные интенсивные методы и технологии обучения иностранным языкам: учеб. пособие. М.: Филоматис, 2008. 188 с.

NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARDA INGLIZ TILINI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHDA TA’LIM MAZMUNI TUSHUNCHASINING METODIK TAHLILI

Tojimatova Madinabonu Umidjon qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti
madinaiminjonova0207@gmail.com
Tel: (94) 507-07-44

Annotatsiya: Ushbu maqolada nofilologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitishda ta’lim mazmunining ahamiyati va uning metodikada tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Nutq mavzulari, nutq malakalari va til materialining o‘ziga xos xususiyatlari borasida fikr va mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: nofilologik yo‘nalish talabalari, ta’lim mazmuni, nutq mavzulari, nutq malakalari, til materiali, makrosistema, mikrosistema.

KIRISH

Hozirgi kunda globallashib borayotgan jahonda barcha sohalarda ulkan o‘sish va rivojlanishlar bo‘lmoqda. Shu jumladan, chet tillarini o‘qitish va o‘rganish ham kundan-kunga oshib bormoqda. Mamlakatlar bo‘ylab chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarda o‘rganish va o‘qitish ahamiyat darajasi yuqorilashdi va natijada bu tilga bo‘lgan ehtiyoj ham oshib bormoqda. Dastlab, ingliz tili tilshunos bo‘lgan insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan va o‘qitilgan. Hozirda nofilologik yo‘nalishdagi talabalar ham ingliz tilini o‘rganishga ehtiyoj sezishmoqda. Bunga sabablardan biri, til o‘rganuvchining o‘z kasbi doirasida ingliz tilidan foydalanib, kasbiy rivojlanishga erishishdir. Yurtimizda ingliz tiliga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga kuchaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “2017—2021 yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning to‘rtinchi bandi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga ko‘ra, chet tillar hamda boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish vazifalaridan kelib chiqib davlat tomonidan chet tillarni o‘qitishni takomillashtirishga oid qo‘shimcha qarorlari nofilologik oliy o‘quv yurtlarida ham ingliz tilini o‘qitish jarayonini isloh qilishni taqozo qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar yordamida tilni o'qitishda individualizatsiya muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z qiziqishlariga mos ravishda o'qitish usullarini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o'qitishda an'anaviy usullarga nisbatan ko'proq ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ularning qo'llanilishi, ta'lim jarayonini innovatsion va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi, bu esa o'quvchilarni yanada samarali va shaxsiy yondashuv bilan ta'minlaydi.

TAHLIL

Zamonaviy texnologiyalarni ingliz tilini o`qitishda qo`llash, ta`lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Ushbu mavzu bo`yicha tahlilni quyidagi asosiy jihatlar orqali ko`rib chiqamiz. Amaliyotimiz davomida maktab o`quvchilari bilan bir tajribani sinab ko`rdik va bu uchun 4- 5-sinf o`quvchilarini tanlab oldik. Hammaga ma`lumki hozirgi kunda o`quvchilar maktablardagi chet tilini o`rganish darslarida 2 guruhga bo`linib dars mashg`ulotlarini o`tishadi. Huddi shu sinflarning yarmiga oddiy, hech qanday kompyuter, kalonka va interaktiv doskalarsiz dars o`tdik va yangi so`zlar ham

doimgidek faqat qayta-qayta takrorlash orqali yodlatishga harakat qilindi. Dars davomida o`quvchilar shovqin sola boshlashdi va deyarli zerikarli dars bo`layotkani yaqqol ko`rinib turgan edi. Ular hattoki dars qachon tugashini ham so`rashga ulgurishdi. Qolgan yarim guruhga esa mavzular rang- barang materiallar, kompyuter va yangi so`zalar ham kalonka yordamida qiziqarli qo`shiqlar orqali yodlatildi. Ikki guruh bir-biriga solishtirilganda 2- guruh darsda aktiv, ziyrak va ingliz tili faniga nisbatan qiziqishlarini ularni ko`zida yaqqol ko`rdik. Shunga o`xshash savollar bo`yicha maktab o`qituvchilaridan ham so`rovnomalar oldik, ular ham zamonaviy texnologiyalar bilan o`qitishni qo`llab- quvvatlashdi. Shuningdek bu tajriba haqida bizni fikrimiz quyidagilardan iborat:

Zamonaviy texnologiyalarni ingliz tilini o'qitishda qo'llash, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Ushbu mavzu bo'yicha tahlilni quyidagi asosiy jihatlar orqali ko'rib chiqamiz:

Ingliz tilini o'qitishda audio va video materiallar kiritilishi o'quvchilarning tinglash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. YouTube'dagi ta'lim kanallari, podkastlar va video darslar o'quvchilarga turli aksentlar va nutq uslublari bilan tanishishga yordam beradi. Bu, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va real hayotdagi kommunikatsiya vaziyatlariga tayyorladi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali masofaviy ta'lim imkoniyatlari, masalan, Zoom yoki Microsoft Teams kabi ilovalar orqali, dars jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Bu xususan, pandemiyadan keyin ta'limning kelajagi sifatida ko'rilmoqda. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni davom ettirish, guruhli ishlar va interaktiv muhokamalar osonlashadi.

O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun gamifikatsiya elementlarini qo'llash juda foydali. O'yinlar, viktorinalar va musobaqalar orqali ingliz tilidagi ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu, o'quvchilarga yanada qiziqarli va o'zaro faoliyat muhit taqdim etadi, shuningdek, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Zamonaviy texnologiyalarni ingliz tilini o'qitishda qo'llash, o'quvchilarni yanada faol, qiziqarli va samarali o'rganishlarga rag'batlantiradi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat tilning asosiy qoidalarini o'zlashtiradilar, balki ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bularning barchasi, ishtirok etishni davom ettirish va o'zaro tajriba almashish orqali ta'limni yanada mukammallashtirish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytkanda, zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning ijodkorligiga, tahlil qilish qobiliyatiga va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va onlayn forumlar orqali fikr va tajribalar almashish, o'quvchilarda o'z-o'zini o'rganish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalarni ingliz tilini o'qitishda qo'llash o'quv jarayonini yangilaydi, samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi. Bu texnologiyalar yordamida biz o'quvchilarni nafaqat ingliz tilini o'rganishga, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham hissa qo'shishimiz mumkin. Bunda, o'g'il-qizlarning o'z-o'zini shakllantirish, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash imkoniyati kengayadi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshiradi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga faol ravishda kiritish barcha o'qituvchilar va o'quvchilar uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. https://www.ef.com (EDUCATION FIRST)
2. https://www.hasanboy.uz (Ingliz tili darslarida qiziqarli o`yinlar)
3. Teaching English with Technology-Isil N.E.Yildirim.
4. Jeremy Harmer,2007. How to teach English.
5. Jamol Jalolov, Toshkent-2012. Chet tili o`qitish metodikasi.

DEVELOPMENT OF SPEAKING SKILLS OF SECONDARY SCHOOL ENGLISH LANGUAGE LEARNERS THROUGH THE SHADOWING TECHNIQUE

Sevinch Mirabdullaeva
Namangan State University

Abstract: The study explores the impact of the shadowing technique on improving the speaking skills of secondary school English language learners. Shadowing, a language learning approach involving the imitation of spoken input in real-time, has been shown to enhance pronunciation, intonation, and fluency. Through a mixed-method research design, this study examines the effectiveness of the technique among secondary learners. Results indicate significant improvement in speaking confidence and accuracy.

Key words: Speaking skills, shadowing technique, English language learners, secondary school, language fluency, pronunciation.

In today's globalized world, proficiency in English speaking skills is a critical competency for secondary school students. Effective oral communication enables learners to engage in academic, professional, and social contexts with confidence. However, many English language learners (ELLs) at the secondary school level face persistent challenges in developing speaking skills. These challenges often stem from limited exposure to authentic language use, lack of practice opportunities, and anxiety associated with oral communication.

Traditional classroom methods, such as rote memorization of dialogues and grammar-focused teaching, often fail to address these barriers effectively. There is a growing need for innovative approaches that emphasize practical usage, real-time responsiveness, and learner engagement. One such approach is the shadowing technique, a method that involves learners repeating speech input immediately after

hearing it. Originating in simultaneous interpreter training, shadowing has gained recognition as a valuable tool for developing fluency, pronunciation, and listening skills in second language acquisition.

This study investigates the application of the shadowing technique in secondary school settings. The objective is to determine whether incorporating shadowing into English language instruction can improve speaking proficiency among secondary school students. Specifically, the research addresses the following questions:

1. To what extent does the shadowing technique enhance students' fluency, accuracy, and pronunciation?
2. How does shadowing impact learners' confidence and attitudes toward speaking English?
3. What practical strategies can educators use to integrate shadowing into secondary school curricula?

By addressing these questions, this research aims to provide educators with insights into the effectiveness of shadowing and its potential to transform traditional English language teaching practices.

The shadowing technique has gained significant attention in second language acquisition research due to its potential to improve listening, pronunciation, and speaking skills. This section provides an overview of the theoretical foundations of shadowing, its application in language learning, and its relevance to secondary school English language learners.

The shadowing technique was first introduced in interpreter training, where it was used to enhance cognitive processing and real-time verbal articulation (Kadota, 2007). The technique requires learners to repeat spoken input immediately after hearing it, fostering active listening and automatic speech production. Shadowing aligns with key principles of language acquisition theories, such as Krashen's Input Hypothesis, which emphasizes the importance of comprehensible input in learning,

and Swain's Output Hypothesis, which highlights the role of language production in developing accuracy and fluency.

Recent studies have demonstrated the effectiveness of shadowing in second language contexts. Hamada (2016) explored the impact of shadowing on Japanese EFL learners and found significant improvements in pronunciation, fluency, and listening comprehension. Similarly, Murphey (2001) highlighted that shadowing not only enhances linguistic skills but also boosts learners' confidence and motivation. These studies suggest that shadowing facilitates the internalization of rhythm, intonation, and sentence structures, which are critical for spoken language proficiency.

For secondary school English language learners, the challenges of speaking often include anxiety, lack of exposure to authentic speech, and difficulty with pronunciation. The shadowing technique addresses these challenges by providing a low-risk environment for practice and encouraging active engagement with spoken language. Studies by Lambert (1992) and Ellis (2008) have emphasized that repetitive imitation of native-like input helps learners develop automaticity and reduces hesitation in speech.

While the benefits of shadowing have been widely acknowledged, there is limited research on its application specifically for secondary school learners in diverse educational contexts. Additionally, the majority of studies focus on university-level or adult learners, leaving a gap in understanding its impact on younger students. This study seeks to fill this gap by examining the effectiveness of shadowing for secondary school students in improving their speaking skills.

This study employed a mixed-method research design to evaluate the effectiveness of the shadowing technique in developing the speaking skills of secondary school English language learners. The methodology comprised quantitative pre-test and post-test evaluations alongside qualitative observations and learner feedback.

The study involved 60 secondary school students aged 12–15 from a suburban public school. The participants were divided into two groups: an experimental group (30 students) and a control group (30 students). All participants were non-native English speakers with intermediate proficiency levels, as determined by a standardized English proficiency test.

A pre-test design was used to compare the speaking performance of the two groups. The experimental group received shadowing-based instruction, while the control group followed the traditional curriculum, which focused on grammar and vocabulary exercises. Both groups were assessed using the speaking skill rubric to establish baseline proficiency.The experimental group practiced shadowing for 30 minutes daily over an 8-week period.Materials included audio recordings of native speakers in conversational and academic contexts.Shadowing tasks involved listening, repeating, and gradually increasing the speed of response.The control group continued with standard speaking activities, such as role-playing and group discussions.

Both groups were reassessed using the same rubric to measure improvement.Teachers recorded behavioral changes, such as increased participation and reduced hesitation in speech.

The pre-test and post-test scores revealed significant improvements in the speaking skills of the experimental group compared to the control group.

Group	Pre-Test (Mean)	Post-Test (Mean)	Improvement
Experimental Group	5.6	8.2	2.6
Control Group	5.4	6.3	0.9

Qualitative observations and feedback revealed the following trends:

Increased Fluency: Students in the experimental group demonstrated reduced hesitation and improved pacing in their speech.

Enhanced Pronunciation: Regular shadowing practice helped students mimic native-like intonation and stress patterns.

Boosted Confidence: Learners reported feeling more comfortable speaking English, attributing this to the repetitive and low-pressure nature of shadowing tasks.

The findings align with previous research that highlights the benefits of shadowing for language learners. The significant improvement in fluency and pronunciation supports Hamada's (2016) assertion that shadowing promotes automaticity in speech production. Additionally, the observed increase in confidence and participation mirrors Murphey's (2001) findings that shadowing reduces language anxiety.

For secondary school learners, the shadowing technique offers unique advantages:

1. Practical Engagement: By imitating native speakers, students are exposed to authentic language use, which enhances their understanding of natural rhythm and expressions.

2. Adaptability: The method is suitable for various proficiency levels and can be integrated into different classroom settings.

3. Skill Integration: Shadowing simultaneously develops listening and speaking skills, providing a holistic approach to language learning.

However, the study also highlighted challenges. Some students initially struggled with the speed of native speakers' speech, requiring adjustments in task difficulty. Teachers also noted that consistent practice was essential to sustain progress.

This study examined the effectiveness of the shadowing technique in improving the speaking skills of secondary school English language learners. The results demonstrated that shadowing significantly enhanced students' fluency, pronunciation, and accuracy compared to traditional teaching methods. Additionally, qualitative data revealed that shadowing increased learners' confidence and engagement in speaking activities.

The findings underscore the practical advantages of integrating the shadowing technique into English language instruction:

1. Skill Development: Shadowing simultaneously improves listening and speaking skills, offering a comprehensive approach to language learning.

2. Confidence Building: The repetitive nature of shadowing reduces language anxiety, encouraging learners to participate more actively in oral communication.

3. Accessibility: Shadowing is a flexible technique that can be adapted to various classroom settings and proficiency levels.

Despite these benefits, the study identified some challenges, including the initial difficulty of mimicking native speakers' speed and the need for consistent practice to maintain progress. Teachers must consider these factors when implementing shadowing in their curricula.

Recommendations

1. Provide gradual scaffolding for learners by starting with slower-paced audio materials before progressing to native-speed recordings.

2. Incorporate shadowing into regular speaking exercises to ensure sustained improvement.

3. Conduct further research to explore the long-term impact of shadowing on speaking skills and its applicability in diverse educational contexts.By addressing these considerations, educators can harness the potential of shadowing to foster more confident and proficient speakers of English.

References

1. Kadota, S. (2007). Shadowing as a Language Learning Technique. Tokyo: Kurosio Publishers.
2. Hamada, Y. (2016). "Shadowing: Who Benefits and How? Uncovering a Piece of the Puzzle." TESOL Quarterly, 50(4), 748–767.
3. Murphey, T. (2001). "Exploring the Shadowing Technique in EFL Teaching." ELT Journal, 55(3), 205–213.

4. Lambert, S. (1992). "Shadowing." Meta: Journal des Traducteurs, 37(2), 263–273.
5. Swain, M. (2005). "The Output Hypothesis: Theory and Research." In E. Hinkel (Ed.), Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning (pp. 471–483). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
6. Ellis, R. (2008). The Study of Second Language Acquisition. Oxford: Oxford University Press.
7. Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis: Issues and Implications. New York: Longman.

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Marufjanova Dilafruz
Namangan davlat universiteti 4 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida o’yindan foydalanishning samarali usullari haqida bo’lib, unda ingliz tili darslarida “Duolingo”, “Kahoot” kabi platformalar til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Jamoaviy o‘yinlar esa til o’rganuvchilarining birgalikda ishlash tajribalarini oshiradi. Masalan, “Scrabble” yoki “Boggle” kabi so‘z o‘yinlari ularning lug‘at boyligini oshiradi. Rol o‘ynash o‘yinlari (role-playing games) ularga tilni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Kalit so’zlar: games, Kahoot, scrabble, interactiv o’yinlar, gamification.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o’quvchilarda avvalo so’z boyliklarini hamda grammatik ko’nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

Til o’rganishda o’quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchu leksik kompetensiyalarini shakllantirish chet tilida ravon va erkin muloqot jarayoniga kirishishiga sabab bo’ladi. Shu bois, o’quvchilarni leksik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan adabiyotlar tahlili asosida ayrim tushunchalarga izoh berib o’tishni lozim topdik.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan bir qator o‘zgarishlar va islohotlar, albatta, til o’rganuvchining barcha sohalarda ayniqsa til o’rganishda o’quvchilarga kompetentli yondashuv asosida til ta’limini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu o’rinda kompetensiya tushunchasining mazmuniga ahamiyat qaratsak. Kompetensiya - fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, ko‘nikmalarni, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida uchraydigan amaliy va nazariy

masalalarga yechim topishda foydalanib, amaliyotda erkin qo‘llay olishdir. O‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bu kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limdir. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda faol til o’rganishga, mustaqil, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olishga, sog‘lom raqobat, umummadaniy hamda ongli ravishda kasb-hunar tanlashga qaratilgan qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hozirgi kunda talim jarayonlarida o’yin texnologiyalari ta'limda muhim ro’l o’ynaydi. Ular chet tilini o'rganishni qiziqarli va yodda qolarli qilish uchun juda foydali vositadir. Role play o'yinlari talabalarining hissiy holatlarini yaxshilaydi va ta'lim jarayonini yanada muloqotli qiladi. O'yin talabalar uchun eng jozibali faoliyatdir, bu esa chet tilini o'qitishda qanday muvaffaqiyatga erishilishini ta'sir qiladi.

O'yinlar talabalarining kognitiv qiziqishlarini ijobiy tarzda shakllantiradi, shuningdek, ularni chet tilini ongli ravishda o'rganishga yordam beradi. Ular o'z-o'ziga ishonganlik, tashabbuskorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. O'qituvchi faqat talabalarining akademik faoliyatini nazorat qiladi; ular astoydil va ishtiyoq bilan ishlaydi, bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar va bir-birlariga diqqat bilan e'tibor beradilar.

Ingliz tili darslarida o’yindan foydalanishning samarali usullari juda ko’p. Hozirgi zamonaviy davrda ingliz tilini o’rgatishda turli texnologiyalar va metodlarni ishlatish juda muhimdir.[12] Shulardan biri o’yin texnologiyalaridir. O’yinlar, ayniqsa, bolalar va o’smirlar uchun o’rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llashning foydalari quyidagicha ko’rsatiladi. Avvalo, o‘yinlar til o’rganuvchilar uchun qiziqarli va rag‘batlantiruvchi

[12] Shamsematova B.R, Ingliz tilini o’qitishda o’yinli texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences, 2024. –B.656

o‘rganish muhitini yaratadi. Bu esa ularni darsdan zavqlanishiga va o’rganilgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga undaydi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshadi chunki endi darslar interaktiv va qiziqarli. Misol uchun, o‘yin jarayonida ular uchun yangi so‘zlarni yod olish ancha qiziqarli va zavqli bo‘ladi.

Ikkinchidan, o‘yinlar tufayli o‘quvchilar faol ishtirok etishni boshlaydi, bu o’z vaqtida ularning diqqatini va qiziqishini yaxshilashga yordam beradi. O‘yin jarayonida ular o’zlari mustaqil qarorlar qabul qilib, kelib chiqqan muammolarni yechishlari zarur, bu esa ularni o‘rganish jarayonida faol bo’lishga undaydi.[13]

Uchinchidan, o‘yinlar yangi so‘zlarni va grammatik qoidalarni eslab qolishni osonlashtiradi. O‘yin texnologiyalari yordamida o‘rganish jarayoni tabiiy va intuitiv tarzda rivojlanadi, bu esa o‘quvchilarga yangi bilimlarni tez va samarali o’zlashtirishda yordam beradi. Masalan, so‘z yoki lug‘at o‘yinlari bu til o’rganuvchilariga yangi so‘zlarni yod olishda katta foyda keltiradi.

To‘rtinchidan, zamonaviy o‘yinlar ko‘p hollarda raqamli platformalarda o’tkaziladi, bu esa albatta o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o’rganish va o’zlarini bugungi kunga tayyorlash imkonini beradi. Raqamli o‘yinlar yordamida o‘quvchilar faqat ingliz tilini o‘rganib qolmay, balki raqamli texnologiyalarni ishlatish tajribalarini ham oshirib boradilar. Bu esa o’z navbatida ularning kelajakdagi muvaffaqqiyatlarining sababi bo’lib qolishi mumkin.

O‘yinli texnologiyalarini o‘rgatishda bir nechta usullar bor. Masalan, kompyuter o‘yinlari. Ingliz tilini o’rgatadigan o’qituvchilar maxsus ta’limiy kompyuter o’yinlarini ishlatib ko’rishlari mumkin. Misol uchun, "Duolingo", "Kahoot!" kabi platformalar til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Jamoaviy o‘yinlar esa til o’rganuvchilarining birgalikda ishlash tajribalarini oshiradi. Masalan, "Scrabble" yoki "Boggle" kabi so‘z o‘yinlari ularning lug‘at boyligini oshiradi. Rol o‘ynash o‘yinlari (role-playing games) ularga tilni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu ularga turli xil situatsiyalarda qanday so’zlash zarurligini o‘rgatadi. Shu kunlarda keng tarqalgan mobil ilovalar o’quvchilarga

[13] Shamsematova B.R, Ingliz tilini o’qitishda o’yinli texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences, 2024. –B.657

o’zlari uchun qulay vaqt va joyda o’rganish imkoniyatini beradi. O’z navbatida o‘quv jarayoni uzluksiz va samarali davom etadi.

Bir nechta olimlar o’yin texnologiyalarini o’rganish bo’yicha turli xil tadqiqotlar o’tkazgan va ularning o’quv jarayoniga ta’sirini tasdiqlagan. Misol uchun, Oxford universiteti tadqiqotchilari o’tkazgan tadqiqotda, yangi so’zlarni o’yinlar yordamida eslab qolgan til o’rganuvchilar ko’rsatkichi an’anaviy o’rgatish usullaridan foydalangan holda o’rgangan o’quvchilar ko’rsatkichidan 20% yuqori ekanligi aniqlangan. Yana bir tadqiqotda esa, ularning darsga bo’lgan qiziqishi va ishtirokini ‘Kahoot’ platformasidan foydalanish sezilarli darajada oshirganligi berilgan.[14] O’yinlarning ta’limga bo’gan ta’siri James Paul Gee (2007) ning ‘What Video Games Have to Teach us About Learning and Literacy’ asarida ham ijobiy fikrlar berilgan. James Paul Gee ning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammo hal qilish ko‘nikmalari va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatlari video o’yinlar orqali rivojlanadi. O’yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o’rni va ahamiyati Jan L. Plass, Bruce D. Homer va Charles K.Kinzer (2015) ‘‘Educational Psychologist’’ jurnalida chop etilgan maqolalarida ham ko’rib chiqilgan. Ularning izlanishlari shuni ko’rsatadiki, o’yinli texnologiyalar til o’rganuvchilarining darsga nisbatan qiziqishlarini rivojlantiradi va qiyinroq mavzularni tushunishda katta yordam beradi. Sebastian Deterding, Dan Dixon, Rilla Khaled va Lennart Nacke (2011) “From Game Design Elements to Gamefulness: Defining ‘Gamification’” asarida gamifikatsiya tushunchasini tahlil qilib,uning ta’limdagi ahamiyatiga e’tibor qaratishgan. Ularning izlanishlari o’yin elementlarini o’quv jarayoniga kiritish til o’rganuvchilarining motivatsiyasini oshirishda muhim rol o’ynashini ko’rsatadi. Raqamli o’yinlarning til o’rganishdagi ta’siri Oxford University Press (2020) tomonidan o’tkazilgan tadqiqotda o’rganilgan. Til o’rganuvchilari uchun qiziqarli va samarali o’quv muhitini yaratish uchun milliy o’yinlarni dars jarayoniga qo’shish lozim. Bu usul yordamida til o’rganuvchilar faqatgina ingliz tilini o’rganib qolmay, balki milliy madaniyatimiz va boshqa xalqlar

[14] Shamsematova B.R, Ingliz tilini o’qitishda o’yinli texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences, 2024. –B.658

madaniyati haqida ham tushunchaga ega bo'ladilar. Yangi so'zlarni eslab qolish milliy o'yinlar yordamida samarali bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda mashhur bo'lgan ''Chidamli'' yoki 'Oq terakmi, ko'k terak'' o'yinlari yordamida til o'rganuvchilariga yangi so'zlarni o'rgatish mumkin. Ular so'zlarning ma'nosini eslab qolishlarini osonlashtirish uchun har bir so'zga qisqa hikoya yoki jumla tuzishlari lozim. Grammatik qoidalarni esa ''Ko'pkari'' kabi o'yinlar yordamida amaliyotda qo'llash mumkin. Misol uchun, Grammatik qoidalarga asoslangan savollarga o'yin jarayonida javob berishlari lozim bo'ladi. Ularning dars davomida aktivligini ta'minlash uchun milliy bayramlar va o'yinlarni sahnalashtirish ham mumkin. Masalan, Navro'z bayrami mavzusidagi rolli o'yin tashkillashtirish orqali o'quvchilar til ko'nikmalarini oshiradilar. Madaniy bilimlarini milliy o'yinlar yordamida ham rivojlantiradilar. Dars jarayonida milliy o'yinlar va ularning tarixini muhokama qilish til o'rganuvchilarining madaniy bilimlarini kengaytirishga yordamlashadi. Bu metod yordamida ular faqatgina ingliz tili emas,balki o'z milliy meroslari haqida ham chuqurroq ma'lumotga ega bo'ladilar.

Avvalo, shaxsiy rivojlanishda ham o'yin muhim ahamiyatga ega chunki musobaqa jarayonida o'quvchilar o'z jamoasiga yordam berishga intilashadi, to'g'ri javoblar topishga harakat qilishadi va faol ishtirok etishadi, shu bilan darsni yanada qiziqarli va samarali qilishadi.[15] Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shunday holatlar faqatgina kuchli talabalarga emas, balki zaif talabalarga ham o'z salohiyatlarini namoyish etish imkonini beradi. Ko'p hollarda, yaxshi natijalar ko'rsatmagan til o'rganuvchilar o'yin jarayonida o'zlarini boshqa tomondan ko'rsatishlari va faol ishtiroklari tufayli jamoani g'alabaga yetaklashlari mumkin. Shunday qilib, o'yinlardan foydalanish zaif o'quvchilarga motivatsiya berishda muhim rol o'ynaydi, ularga fanga qiziqishni oshirib, undan o'rganishdagi kelajakdagi muvaffaqiyatlarga yo'l ochadi. Chet tilini o'qitishda o'yin metodlari eng samarali usullardan biri sifatida qaraladi, chunki ularning psixologik-pedagogik negizi o'yin faoliyatiga asoslanadi va bu shaxsning aqliy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. O'rta

[15] Komiljanova Shahrizoda. Xushnud qizi, Ingliz tili darslarida o'yin metodidan foydalanish(yuqori sinflar uchun),

maktabda chet tili darslarida o'yin metodlaridan foydalanish o'smirlarning aqliy ehtiyojlarini qondiradi, fikrlash jarayonlarini jonlantirib, chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги "Чет тил- ларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирларини тўғрисида"ги ПҚ-1875-сон қарори. - https://lex.uz/docs/2126032

2. Halliday M.A.K. Language as a social semantic. - London: Edward Arnold. 1978, 1-3.

3. Lewis V. The lexical approach: the state of EFL and a way forward. Hove: Language teaching publications. 1993. 99.

4. Widdowson H.G. Knowledge of language and ability for use. Applied linguistics.1989. 10(2), 128-137.

5. Wills D. Grammar and lexis: some pedagogical implications. London: Routletge. 1993.

6. Циткина Ф. Терминология и перевод, К основам сопоставительного терминове- дения. – Львов: 1988.

7. Реформатский А.А., Мысли о терминологии. «Современные проблемы русской терминологии. – М: 1986. с. 163-198.

8. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. - Т.: "Фан" 1977, 21.

9. Абдуллаева Ф.С. Инглиз тилида терминларни ўқитишнинг лингводидактик асос- лари. // "Замонавий таълим" илмий-оммабоп журнал. 2015. 12-сон.

10. Sinclair J.M. Corpus, concordance, collocation. - Oxford University Press, 1991. 112.

11. Nattinger J. and Decarrico J. Lexical phrases and language teaching. –

Oxford: Oxford University Press. 1992.

12. Maccarthy M. Vocabulary. – Oxford: Oxford University Press. 1990,12.

13. Nattinger J. Some current trends in vocabulary teaching. - Harlow: Longman. 1988. 69.

14. Carter R. Vocabulary: Applied linguistic perspectives. - London: Rouledge.1987. 58.

TA’LIM TIZIMIDA LOYIHALASHTIRISHNING O‘RNI VA IMKONIYATLARI

G‘anijonov Shohjahon G‘ayratjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
Telefon: +998 94 257 00 15

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimida loyihalashning o‘rni va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Yozma ishda uzluksiz ta’limning asosiy tamoyillari, uning o‘zgaruvchan talablarga moslashishdagi ahamiyati va innovatsion yondashuvlar muhokama qilinadi. Loyihalash jarayonlari, ta’limda yangiliklarni joriy etish, shuningdek, ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishda loyihalashning qanday yordam berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada, uzluksiz ta’limni rivojlantirishda loyihalashning strategik ahamiyati, resurslarni samarali taqsimlash va ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimlarini takomillashtirish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta’lim, pedagogik tizim, pedagogik loyihalash**,** ta’lim tizimi, loyihalash, innovatsion yondashuvlar, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda yangiliklar, ta’lim resurslarini boshqarish, strategik loyihalar, ta’lim muassasalarini takomillashtirish, ta’lim jarayonlari, samaradorlikni oshirish, ta’limda boshqaruv tizimi, ta’lim texnologiyasini loyihalashtirish.

Pedagogik tizim – pedagogik texnologiyaning asosi. Pedagogik tizim bir butun, harakatlanu vchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘lib, u o‘quv chi, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘qi tuvchi yoki texnik vositalar, ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllaridan tuziladi.

Pedagogik tizim didaktik vazifa va ta’lim texnologi yalarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni – didaktik vazifa; o‘quv jarayoni, o‘qituvchi yoki texnik vositalar, ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari – ta’lim texnologiyasi. Ta’lim muassasasining pedagogik tizimi – bir maqsad ga

yo‘naltirilgan, tashkiliy tizim bo‘lib, o‘sib kelayotgan avlodni jamiyat hayotiga jalb etish, ularni jamiyat madaniya tini o‘zlashtiruvchi, ijodkor, faol shaxs qilib rivojlantirish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bu maqsad ta’lim muassasasi pedagogik tizimini takomillashtirishning barcha bosqichlarida, uning didaktik, tarbiyaviy tizimlarida ham da pedagogik jarayon barcha qatnashchilarining kasbiy va erkin muloqoti(boshqarish)da amalga oshiriladi. Nazariy konsepsiya uchta o‘zaro bog‘langan, o‘zaro bir-biriga singib ketuvchi, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan: di daktik, tarbiyaviy hamda muloqot(boshqaruv) tizimlarida amalga oshiriladi. Bu tizimlar takomillasha borib, o‘z navbatida nazariy konsepsiyaga ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga mos keladigan ta’lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psi- xologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg‘or g‘oyalariga tayangan holdagina yaratiladi. Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g‘oya, ma’lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo‘llarini belgilab beruv chi g‘oyalar, fikrlar, obrazlardir.

Pedagogik loyihalash (PL) – yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko‘rinishda ishlab chi- qish va uni amaliy qo‘llash darajasiga yetkazishdan iborat. Pedagogik faoliyatda loyihalash ob’ektlari sifa tida pedagogik jarayon, pedagogik vaziyat, pedagogik tizim bo‘lishi mumkin.

Pedagogik loyihalash quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Obyekt haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurga maksi mal yaqinlashtirish uchun uni nima qilish kerakligi haqida umumiy tasavvurlarni izlash. Loyihaviy model pedagogik faoliyatning yangilangan qismi qanday bo‘lishi lozimligini, mazkur faoliyatni yaxshilashni ta’minlash omillari haqida bilimlarni o‘zida mujassam etadi;

2. Eskirgan samarasiz modellar o‘rniga taqdim etiladigan yangiliklarni modellashtirish uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan pedagogik xulosalar namunalarini izlash;

3. Pedagogik tizimning yangilangan bir bo‘lagining innovatsion modelini yasash;

4. Yangilikni amaliyotga joriy etish algoritmini qurish. O‘quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta’lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir. O‘qitishni loyihalash esa ta’limning umumiy maqsadi, mazmuni o‘quv maqsadlari o‘qish, o‘qitish, o‘zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o‘qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta’limning umumiy maqsadlari asosida, o‘quv maqsadlarini, buning uchun o‘qish va o‘qitish ni, o‘zlashtirishni rejalashtirgan holda, o‘qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o‘quv mazmuni asosida o‘zlash- tirish natijalarini kafolatlash uchun, o‘quv maqsadlari oy dinlashtiriladi va o‘quv mashg‘ulotlari loyihalashtirila di.

Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo‘lsak, unda o‘quv jarayoni ma’lum modullar, birliklardan iborat bo‘ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo‘shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadi gan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslan gan teskari aloqaning mavjudligidir.

Bugungi kunda pedagogik tizimni loyihalash va re jalashtirish masalasi oliy ta’lim tizimida yetakchi tenden siya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq loyihalash va re jalashtirishga doir faoliyatning mazmun-mohiyati hamma uchun birdek tushunarli bo‘lmayapti. Shuning uchun fanlar bo‘yicha yaratilayotgan ta’lim texnologiyalarida formallik, takroriylik, maqsad va vazifalarning nomuvofiqligi, qayta aloqalarning intensiv emasligi, loyihalash va rejalashti- rishning ketma-ket amalga oshirilmasligi kabi kam chiliklar ko‘zga tashlanmoqda.

Ta’limga texnologik yondashuv o‘qituvchidan o‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanish jarayonida juda ko‘p mehnat qilishni talab qiladi. Mazkur jarayonda professor-o‘qituv chi har bir mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadini oydinlashtirish, pedagogik vazifalarni to‘g‘ri qo‘yish, o‘quv faoliyati nati jalarini aniqlashtirish,

ta’limni tashkil etish shakl, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlab olish, o‘quv vaqtini oqilona taq simlash orqali o‘qituvchi va talabaning faoliyatini aniq tar tiblangan algoritmini hosil qilishi lozim. Ana shu tartibda o‘quv jarayonini loyihalay olgan professor-o‘qituvchigina talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini erkin boshqara oladi. Ta’lim – boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natija si, ko‘p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq.

Didaktik loyiha esa ta’lim texnologiyasining mahsulidir. O‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko‘ra boshqarish ta’lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko‘p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosiga cha bo‘lgan masofada ta’limning samarali usullari, vosi talari ko‘p topiladi. Bu yerda ta’lim texnologiyasi eng sa marali usul bo‘lib, ta’limning samarali shaklini tanlashda o‘qituvchiga yordamga keladi. Demak, maqsaddan etalonga yetib kelguncha o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talaba ongi juda ko‘p hodisal ar bilan uchrashadi.

Ta’limga texnologik yondashish bu – ma’lumot va ta’lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o‘qi- tish maqsadi, o‘qish maqsadi) ta’limning didaktik maqsadi ni belgilash asosida ta’limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan mo‘ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta’lim texnologiyasi haqida gap ketganda o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi:

ta’limni didaktik loyihalash;

loyihani amalga oshirish;

ta’limning joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish;

ta’limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat.

Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an’anaviy ta’lim tajribasida ham uchraydi. Ta’lim texnologiyasining an’anaviy ta’lim tizimidan farqi shun daki, ta’lim natijasi va uning etalon darajasida bo‘lishi do- imo o‘qituvchi (pedagog) hamda o‘quvchi-talabaning diqqat markazida turadi. O‘qituvchi (pedagog) ta’lim natijasini tez-tez tekshirib, o‘quvchi-talabalarni o‘zlari erishgan yu tuqlardan ogoh qilib turadi va o‘quvchi-talabalar o‘zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko‘paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etish ga harakat qiladi.

O‘quvchi-talabalar ta’limning zaruriylig ini, ular ta’lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi. Pedagogik loyihalash bu – ommaviy foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimining innovatsion modelini yaratish bo‘yicha maqsadli faoliyat bo‘lib, u ham ta’lim, ham tarbiya jarayonlarini tashkil etilishi bosqichlari, mazkur jarayondagi maqsad va vazifalarni alohida-alohida oydinlashtirish, kutiladigan natijalarni aniq belgilab ol ishni shart qilib qo‘yadi.

Ma’lumki, pedagogikada o‘qituvchining darsga tayyor lanishi bosqichlari haqida gap borganda tashxis etish (diagnostik), bashoratlash (prognostik) bosqichlari bilan birga eng asosiy e’tibor loyihalash ekanligiga qaratiladi. Demak, loyihalash ta’lim jarayoni va o‘qituvchi faoliyatini bog‘lab turuvchi samarali mexanizmdir.

Ta’lim texnologiyasini loyihalashtirishning asosiy bosqichlari:

1. Ta’lim loyihasini tayyorlash. Loyiha o‘qituvchi yoki ekspert a’zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo‘lib, qa tor umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o‘qituvchi (pedagog) va o‘quvchi-talabalarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi. Ta’lim loyihasi ma’lumot mazmunini davlat standart-lari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi.

Tahliliy ma’lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dastur larda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettiril ganligiga qaratiladi. Keyin ta’lim mazmuni o‘rganiladi, u yoki bu mavzuni o‘rganishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning didaktik maqsadi, o‘qituvchi (pedagog) va ta- labalar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzu lar bo‘yicha o‘tkaziladigan

test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o‘zlashtirish usuli oldindan belgilab qo‘yiladi. Bu ishlarning barchasi ta’lim modelini yaratishga olib keladi.

2. Ta’lim loyihasini amalga oshirish. Ta’lim loyihasi bevosita ta’lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Ta’lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi.

Yuqorida berilgan ko‘rsatkichlar loyihalangan o‘quv jarayonining texnologik darajasini to‘liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, talabaning nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanboyev J, To‘raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
2. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казан: КГУ, 1996.
4. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. Казан: Центр информационных технологий, 2003. – 608 с.

© NSIFL, Namangan davlat chet tillari instituti, 2025